“uzilish nuqtasi nima?”, “Nima uchun $y = \frac{1}{\sin \pi x}$ funksiya uzilishga ega?”, “Bu funksiyaning uzilish nuqtalarini qanday topish mumkin?”, “Butun sonlar to‘plami nima?” bu (va boshqa) yashirin savollarga matnda javob berilmagan.

Ikkinchi tip. Matn yashirin savolga tayyor javob emas, balki javobni topish uchun to‘liq axborotni o‘z ichiga oladi. Bu tipga, masalan, quyidagi masala matnini kiritishimiz mumkin: “Ushbu funksiyaning uzluksizlikka tekshiring, grafigin chizing. Uzilish nuqtalarida sakrashni hisoblang.

$$y = \begin{cases} 2, & \text{agar } x > 2 \text{ bo'lsa,} \\ \sqrt{4-x^2}, & \text{agar } -2 \leq x < 2 \text{ bo'lsa,} \\ x-2, & \text{agar } x > 2 \text{ bo'lsa.} \end{cases} \quad \text{” [4].}$$

Bu masala matnida uni yechish uchun barcha shartlar berilgan. Bu yerda quyidagi yashiringan savollar mavjud: “bu qanday funksiya?”, “aniqlanish sohasi qanday to‘plamdan iborat?”, “har bir qaralayotgan oraliqlarda funksiya uzluksizmi?”, “oraliqlar chegarasida funksiya uzluksizmi?”. Bunday hollarda, savol shakllanmagan bo‘lsa-da, u masala shartida yashiringan, uni osonlikcha kuzatish mumkin. Yaqqol ifodalanmagan savolning bunday matnli vaziyatining yechimi - bu ma’lumotlarga asoslangan savollarni qo‘yish va keyin ularga javob topishdan iborat. Bunday holda, buning uchun zarur bo‘lgan barcha axborotlar masalaning matnida berilgan.

Uchinchi tip. Matnda javobni topish uchun zarur bo‘lgan xususiy axborotlar mavjud - aniq yoki noaniq (qolganini talabani o‘zi - takrorlash yoki mulohaza qilish yoki matnning boshqa qismidan, boshqa manbadan to‘ldirish kerak). Masalan, “1 nuqtada uzilishga ega $y = x^2 - \frac{1}{x-1}$ va $y = \frac{1}{x-1}$ ikkita funksiylarning yig‘indisi



uzluksiz funksiya bo'ladimi?" Bunda, quyidagi yashirin savollar bor: "Qaysi nuqtalarda va nima uchun bu funksiyalar uzilishga ega?", "Bu funksiyalarning yig'indisi nima?", "Nima uchun qo'shish natijasida olingan funksiya uzluksiz yoki uzluksiz emas?" Ikkinchi savolga javob berish uchun matnning o'zida ma'lumot mavjud, ammo birinchi va uchinchi savollar fikrlash yo'li bilan yoki darslik yoki boshqa manbadan olingan axborotlarni talab qiladi.

To'rtinchi tip. Matnda yashirilgan savolga javob olish uchun zarur bo'lgan axborotlar yo'q. Masalan, ushbu " $\lim_{n \rightarrow \infty} \sqrt[n]{n} = 1$ ", shuning uchun

$\sum_{n=1}^{\infty} \frac{1}{\sqrt[n]{n}}$ qator uzoqlashuvchi" matnda ikkita asosiy yashirin savol bor:

«Nega $\lim_{n \rightarrow \infty} \sqrt[n]{n} = 1$?» va «Nima uchun qator uzoqlashuvchi?» Ikkinchi

savolga javob matn va qator yaqinlashishining zaruriy shartidan kelib chiqadi.

Matnni tushunishning boshqa usullari ham bor, xususan, quyidagilar: a) savol-taxminlar: «Buning sababi ... emasmi?», «Balki bu ... bilan bog'liqdir?»; b) yangi fikr ta'siri ostida (retsintsia) ilgari o'qilganga fikran qaytish va qayta anglash; c) kelajakda nima haqida (asos yoki xulosa, reja yoki tarkib va sh.o'.) va aynan nima aytilishi haqida oldindan sezish (antitsipatsiya).

O'quv matnini tushunish usullarini shakllantirish uchun bosqichdan o'tadi:

- savolning qo'yilishi asosan tashqi motivatsiya tufayli va ichki rag'batlantirilmagan bo'ladi; savollar ko'pincha matn mazmunining mohiyatini qamrab olmaydi;

- asosan «mnemonik» motivatsiyaga ega bo'lgan savollar-tayanchlarni qo'yish;

- chuqurroq tushunish istagidan kelib chiqadigan biluv savollari va savol-taxminlar, antitsipatsiya; qiyinchiliklarga duch kelganda tez-tez



aqliy zo'riqish va tayyorlik holati paydo bo'ladi, bu holatda yuqoridagi usullarni ongli ravishda qo'llash sodir bo'ladi.

Matnni talqin qilishning shakllangan usullari yordamida talabalar matn bilan ishlashning samaradorligini baholay oladilar, o'zlariga matnning u yoki bu qismini tushunmasligini belgilab oladilar, matnda vujudga kelgan savolga tushuntirish yoki javob yo'qligi faktlarini qayd etishadi, o'zi o'zlarini nazorat qiladi. Ularning xotirasi va tasavvurlari yaxshiroq ishlaydi. Biluvdan tashqari motivatsion komponentlar ham paydo bo'ladi: masalaning yechimini topishga intilish; tushunarsiz joylarini bilish uchun diqqat bilan o'qish niyati va boshqa.

Matnni o'qiyotganda, odam anglamasligi, tushunmasligi, qayg'urmasligi (tashvishlanmasligi) yoki aldamchi tuyg'uni boshdan kechirishi mumkin: tushunarliga o'xshaydi, aslida tushunarsiz bo'lib qoladi.

Tushunish usullarini ishlatmasdan, talaba materialni chuqurroq tushunishni talab qiladigan savollarga javob bera olmasligi ham mumkin. Ba'zida o'qituvchining savollari ta'sirida talaba javobni topish uchun zarur bo'lgan aqliy operatsiyalarni bajarishi, matn mazmunida yangi aloqalar o'rnatishi, o'qish paytida tushunilmagan narsani qayta anglashi va to'g'ri javob berishi mumkin bo'ladi. O'qituvchining savollari ta'sirida talabaning matnni to'liq tushunmaganligi bartaraf etiladi. Agar talaba anglash, tushunish usullarini o'zlashtirgan bo'lsa, u o'qish jarayonida aloqa o'rnatishi mumkin edi; ko'p savollar u uchun kutilmagan bo'lmasdi, chunki u allaqachon ular haqida o'ylagan bo'lar edi; matn bilan mustaqil bajarilgan ishlar natijasida uning tushunishi to'liq bo'lar edi.

Auditoriyadagi barcha talabalarning har bir o'rganilgan matn bo'yicha bilimlarini tekshirish mumkin emas, shuning uchun tushunishning to'liqligini aniqlash mumkin emas. Bundan tashqari, talabaning materialni qanchalik tushunganligini aniqlash uchun savollardan foydalanish har doim ham oson emas. Shuning uchun



tushunishga erishish uchun eng ishonchli mezon - bilimlarni mustaqil egallashga yordam beradigan tushunish usuliga ega bo'lishdir.

Talabalar tomonidan savollar va savol-taxminlarning batafsil shakllantirilishi, yangi muammoli matnli vaziyatlarni hisobga olgan holda matnni qayta ishlashning boshqa usullaridan foydalanish, matnlarning semantik tuzilishini tanqidiy tahlil qilish, matnlarni talqin qilish bo'yicha o'z ishini baholash, matematik materialni tushunishni shakllantirish va chuqurlashtirishning muhim bosqichlari hisoblanadi.

Shunday qilib, birinchi kurs talabalarini o'quv adabiyoti, ma'ruza matnlarini tushunib o'zlashtirishga o'rgatish metodikasini maxsus tadqiq qilish muhim metodik masala hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Доблаев Л. П. Логико-психологический анализ текста (на материалах школьных учебников). -Изд-во Саратовского ун-та, 1969. - 172 с.

2. Доблаев Л.П. Смысловая структура учебного текста и проблемы его понимания. -М.: Педагогика, 1982. - 176 с.

3. Рубинштейн С. Л. Основы общей психологии. - СПб. Изд. АСТ, 2000. - 712 с.

4. Turgunbayev R.M. Matematik analiz 1-qism. Darslik. T. "Innovatsiya-ziyo". 2018. 340 b.

5. Тургунбаев Р.М. Математик анализни тезаурусли ёндашув асосида ўқитиш.- Монография. Т.: Bookmany Print-2022.,-196 б.



ILG'OR TAJRIBA VA O'QITISH METODIKASI

**EKSPERIMENTAL MASALALAR YECHISHDA O'QUVCHI
KREATIV FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH**

*M. A. Butayev, Toshkent "Temurbeklar maktabi"
harbiy-akademik litseyi fizika fani bosh o'qituvchisi*

Maqolada fizika darslarida o'quvchi kreativ faoliyatini rivojlantirishda eksperimental masalalarning o'rni va ulardan foydalanishning afzalliklari keltirib o'tilgan. Shuningdek, fizika darslarida qo'llash uchun ba'zi eksperimental masalalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: eksperimental masalalar, kompetensiyalar, kreativ faoliyatni shakllantirish, kompetensiyaviy ta'lim, tayanch kompetensiyalar, tajriba

В данной статье рассматривается роль экспериментальных задач в развитии творческой деятельности ученика на уроках физики и преимущества их использования. Есть также несколько экспериментальных задач, которые можно использовать на уроках физики.

Ключевые слова: экспериментальные вопросы, компетенции, компетентностное образование, основные компетенции, , опыт.

This article discusses the role of experimental problems in the development of creative activity of the student in physics lessons and the advantages of using them. There are also some experimental problems to use in physics lessons.

Keywords: competences, competency education, basic competencies, experimental issues, experience.

Hozirgi paytda davlat andozalari (standartlari) asosida barcha ta'lim maskanlarida sifatli ta'lim jarayonini tashkil qilish uchun o'zbek



xalqining boy merosidan, hamda jahonning ilg'or tajribalaridan keng foydalanishga e'tibor qaratib kelinmoqda. Misol sifatida bizning ta'lim tizimimizga kompetensiya atamasini va kompetensiyaviy ta'limning kirib kelishini keltirishimiz mumkin. Kompetensiya tushunchasi ta'lim sohasiga 1991-yillar kirib kelganidan ko'rinib turibdiki, bu tushuncha ancha vaqtdan beri mavjud. O'tgan yillar davomida bu atama ta'lim va iqtisodiyot sohasida anchagina mashhurlikka erishdi. Shuningdek turli sohalarida turli yo'llar bilan ishlatilib kelinmoqda [1].

O'quvchilar qiyin yoki notanish vaziyatlarga duch kelganlarida kompetensiyalardan foydalanadilar va rivojlantiradilar. Kompetensiyalar o'quvchilarga nima bilganlari, qanday fikrlashlari va nima qila olishlari haqida chizish va mustahkamlashga yordam beradi. Maktabda o'quvchilar mavzular mazmuni va o'rganish tajribasi orqali kompetensiyalarni rivojlantiradilar va qo'llaydilar. Shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, agar biz kompetensiyaviy ta'lim maqsadlarini amalga oshirmoqchi bo'lsak, fizik masalalar kompetensiyalarni rivojlantirishning asosiy vositasi bo'lib xizmat qiladi [1,2].

Fan bo'yicha nazariy ma'lumotlar berib bo'lingandan so'ng ularga o'tilgan mavzuni yanada singdirish uchun hamda fanni chuqurroq o'zlashtirish uchun fizika kursidan amaliy mashg'ulotlar olib boriladi. Masalalar yechish mashg'uloti fizika fanini chuqur o'zlashtirish uchun amaliy mashg'ulotlardan biri bo'lib hisoblanadi.

O'quv jarayonida mantiqiy xulosalar, matematik amallar va fizikadagi qonunlar hamda metodlarga asoslangan holda eksperiment yordamida yechiladigan kichik muammo, odatda, fizikaviy masala deb yuritiladi. Aslida fizika mashg'ulotlarida o'quv materialini o'rganish bilan bog'liq holda kelib chiqadigan har bir jumboq o'quvchilar uchun masala bo'ladi. Masala yechish jarayonida o'quvchi fizikaviy qonuniyatni o'zi uchun qayta ochadi. Bunday natijalarga erishish uchun sifatga oid masalalar, hisoblash masalalari, grafik masalalar, eksperimental masalalar va boshqa xil masalalardan foydalanish mumkin. Biz ushbu



maqolada eksperimental masalalar va ular yordamida kompetensiyaviy ta'lim maqsadlariga erishish usullariga to'xtalib o'tamiz[1,3].

Eksperimental masalalar – o'lchashlar va fizikaviy kattaliklar orasidagi funksional bog'lanishlar, hamda matematik amallarga asoslangan tajriba yo'li bilan yechishni talab qiladigan masalalardir.

Eksperimental masalalarni laboratoriya mashg'ulotlaridan farqi shundaki, bunday masalalarda o'quvchilarga faqat masala sharti (topshiriq) beriladi. O'quvchilar hech qanday yo'riqnomasiz masala shartini bajarishi kerak bo'ladi. O'quvchilarning o'zlari fizikadan olgan nazariy bilimlariga asoslanib ishini bajarish tartibini, hamda kerak bo'ladigan ishchi formulalarni o'zlari belgilab chiqadilar. Bu kabi mashg'ulotlarda o'quvchilarni kichik guruhlariga bo'lib, masalalarni individual emas balki, guruh bo'lib ishlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Mana shu jarayonda o'quvchilarda fanga oid kompetensiyalar bilan birgalikda tayanch kompetensiyalar ham rivojlantirib boriladi[4,7].

O'quvchilarning eksperimental masalalarga qiziqishlari juda katta. Fizik tajribalar misolida qo'yilgan savol turmush bilan bevosita bog'liq bo'lganligi uchun sinf o'quvchilarining diqqatini o'ziga jalb qiladi. Eksperimental masalalarni qo'yish tajribasi shuni ko'rsatadiki, o'qitish jarayonida ularni qo'llash o'quvchilar munosabatiga va matnli masalalar yechishga samarali ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilar masala mohiyatini tushunishga va keltirilgan masala qanday jarayonga asoslangani haqida fikr yuritishga o'rganadi. Ta'lim jarayoniga qo'llash mumkin bo'lgan bir nechta eksperimental masalalarni keltiramiz[6].

***1-masala.** Og'ir kitobni oling, uni ingichka ip bilan bog'lang va $l_0=30$ sm uzunlikdagi ipga ulang. Kitobni stol ustiga qo'ying va juda sekin oxista tortib olishni boshlang, cho'zilgan ipning uzunligini o'lchashga harakat qiling, kitob siljiy boshlagan paytda kitobni bir tekis harakatlantirganda cho'zilgan ipning uzunligini l ni o'lchab oling. Bu olingan natijalardan absolyut uzayish va nisbiy uzayishni hisoblab toping.*



Bu masala fizikaning mexanika bo'limida *elastiklik* kuchlariga tegishli bo'lgan $\Delta l = l - l_0$ absolyut uzayish va $\varepsilon = (\Delta l / l_0) * 100\%$ nisbiy uzayish mavzularini o'qitishda o'quvchilarga tushunarli bo'lishi uchun eksperimentning yordamchi bo'lib rol o'ynayotgani ko'rinib turibdi. Masalani eksperimentsiz yechish ham mumkin, biroq bunda darsni yanada qiziqarli tashkil qilish imkoni yo'qoladi. O'quvchilar nazariyaning isbotini amaliyotda ko'radilar va fizika faniga bo'lgan qiziqishi yanada oshadi[2,5].

2-masala. *Stol ustiga ikki varaq daftar qog'ozini qo'ying. Birinchi holatda qo'yilgan varaqning yarmiga, kamida 16 sm balandlikdagi bir xil massali kitoblar to'plamini qo'ying. Varaqlarni birgalikda ushlab stol sathidan biroz ko'taring, qo'llaringiz bilan varaqni tezda o'zingizga torting. Bunda stol ustida kitoblar o'z joyida qoladi. Ikkinchi holatda varaqlarni birgalikda ushlab stol sathidan biroz ko'taring, qo'llaringiz bilan varaqni juda sekin o'zingizga torting. Bunda kitoblar varaq bilan birgalikda harakatlanadi.*

Biz quyidagi eksperimental masalani yechish uchun bizga teng o'lchamga ega, massalari teng bo'lgan ikkita daftar varaqlari, bir xil miqdorda joylashtirilgan parametrlari bir xil bo'lgan kitoblar to'plami kerak bo'ladi.

Birinchi holatda, tanlab olgan ikki daftar varog'i teng ekanligi ishonch hosil qilinib, bir xil kitoblar to'plamini tarozida tortib ularning massalari teng ekanligiga ishonch hosil qilamiz. Ikkala varog'ni bir vaqtda joylashtiramiz, ularning ustiga kitoblarni taxlab balandligini kamida 16 sm bo'lguncha taxlaymiz va tajribani boshlaymiz. Birinchi holatda varaqlarni birgalikda ushlab stol sathidan biroz ko'taib, qo'llarimiz bilan varaqlarni tezda o'zimizga tortamizda kitoblar o'z joyida qoladi. Bunga sabab F_{tor} tortuvchi kuch stol va kitob bilan varaq orasidagi F_{ish} ishqalanish kuchidan ancha kata bo'lganligi ($F_{tor} \gg F_{ish}$) [5].

Ikkinchi holatda, tanlab olgan ikki daftar varog'i teng ekanligi ishonch hosil qilinib, bir xil kitoblar to'plamini tarozida tortib ularning



massalari teng ekanligiga ishonch hosil qilamiz. Ikkala varog'ni bir vaqtda joylashtiramiz, ularning ustiga kitoblarni taxlab balandligini kamida 16 sm bo'lguncha taxlaymiz va tajribani boshlaymiz. Ikkichi holatda varaqlarni birgalikda ushlab stol sathidan biroz ko'tarib, qo'llarimiz bilan varaqlarni juda sekin o'zimizga tortgamizda kitoblar varaq bilan birgalikda harakatlanadi. Bunga sabab F_{tor} tortuvchi kuch stol va kitob bilan varaq orasidagi F_{ish} ishqalanish kuchiga teng bo'lganligi sababli kitoblar varaq bilan birga harakatlanadi ($F_{tor} = F_{ish}$).

Eksperimental masalani yechish o'quvchilarda fizika fanining mexanika bo'limidagi dinamika qismini o'qitishda kuchlar va ularning turlari, yo'nalishlari, teng ta'sir etuvchisi haqida umumiy bilimlarga ega bo'lishadi. Darsni yanada qiziqarli tashkil qilish imkoni beradi. O'quvchilar nazariyaning isbotini amaliyotda ko'radilar va fizika faniga bo'lgan qiziqishi yanada oshadi.

3-masala. *Bir bolg'ani oling, unga ingichka ipni bog'lang, shunday bo'lsinki bolg'aning og'irligiga F_{og} , ipning taranglik F_t kuchiga bardosh bersin. Agar bitta ip ushlab turmasa, ikki juft ip oling. Ip yordamida bolg'ani sekin yuqoriga ko'taring bunda bolg'a ipga osilib qoladi.*

Ikkinchi holatda ipga osilgan bolg'ani yuqoriga tezlanish bilan ko'tarsangiz ip uzilib bolg'a pastga tushib ketadi (bolg'a sinmasligiga ostida hech narsa yo'qligiga ishonch hosil qiling). Biinchi holatda bolg'aning inertsiasini kichkinaligi uchun ip uzilmasdan omon qoladi. Ikkinchi holda bolg'aning inersiasini shunchalik kattaligi uchun ip uzilmasdan omon qolmaydi[5].

Birinchi holatda, bolg'aning og'irligi, ipning taranglik kuchidan kichik yoki teng bo'ladi. Shuning uchun ipning taranglik kuchidan F_t , bolg'aning og'irligi F_{og} dan kata bo'lganligi uchun ip uzilmasdan harakatlanadi ($F_t > F_{og}$ yoki $F_t = F_{og}$)[5].

Ikkinchi holatda, bolg'aning og'irligi, ipning taranglik kuchidan katta bo'ladi. Shuning uchun ipning taranglik kuchidan F_p , bolg'aning og'irligi $F_{og'}$ dan katta bo'lganligi uchun ip uzilmasdan harakatlanadi ($F_t < F_{og'}$).

Ushbu masalani o'quvchilarga eksperimental masala sifatida uyga vazifa qilib berish mumkin. Bu masalani fizika kursidagi inersiya kuchi, jismning og'irligi va og'irlik kuchi mavzularini tushuntirish orqali va energiya saqlanish va aylanish qonunlari hodisalarini tushuntirishni qo'llash orqali yechishimiz mumkin.

4-masala. *Tarozi pallasidagi suvli idish muvozanatga keltirilgan. Ipga osilgan $m=0,5$ kg massali po'lat parchasini palladagi idishga tekkizmasdan suvga tushirib suv ichida tutib turilsa, muvozanat buziladimi? Bunda tarozining suvli idish quyilgan pallasiga qanday F kuch ta'sir qiladi? Suv va po'latning zichligini mos ravishda quyidagicha $\rho_s = 1 \times 10^3 \text{ kg/m}^3$ va $\rho_j = 7,8 \times 10^3 \text{ kg/m}^3$ deb oling.*

Berilgan: $\rho_0 = 1 \times 10^3 \text{ kg/m}^3$; $\rho_j = 7,8 \times 10^3 \text{ kg/m}^3$. $g = 9,8 \text{ m/s}^2$.

Topish kerak: F -?

Yechilishi: Suyuqlikka tushirilgan po'lat sharchaga suyuqlik tomonidan yuqoriga yo'nalgan $F_A = \rho_s g V_j$ Arximed kuchi ta'sir qiladi, bunda ρ_0 -suyuqlikning zichligi, V_j - suyuqlikka tushirilgan jismning hajmi bo'lib, $m_j = \rho_j V_j$ formuladan $V_j = \frac{m_j}{\rho_j}$ bo'ladi. U holda suyuqlikdagi jismga ta'sir qiluvchi Arximed kuchi F_A quyidagiga teng bo'ladi:

$$F_A = \rho_s g V_j = \rho_0 g \frac{m_j}{\rho_j}$$

Javob: Nyutonning uchinchi qonuniga binoan suyuqlikdagi po'lat ham Arximed kuchiga teng va pastga qarab yo'nalgan kuch



bilan tarozi pallasiga ta'sir qiladi. Binobarin, muvozanat buziladi va suvli idish turgan tarozi pallasida pastga og'adi. Tarozi pallasiga ta'sir qiluvchi F kuchni yuqoridagi formula asosida osongina hisoblash mumkin [2,5]:

$$F = \rho_s g V_j = \rho_s g \frac{m_j}{\rho_j} = 0,63 \text{ N}$$

Bu masala o'quvchilarni ijodkorlik qobilayini rivojlantirishda, fizikadan olgan nazariy bilimlarini amaliyotga tatbiq qilishda va chuqur mulohaza yuritishga undaydi.

Bu masaladan o'quvchilarga Arximed kuchi to'g'risida tasavvur hosil qilishda foydalanish mumkin. Arximed kuchining $F_A = \rho_s g V_j$ formulasidan ham ko'rinib turibdiki, itarib chiqaruvchi kuch suyuqlik zichligiga to'g'ri proporsional. Bundan «Qaysi suyuqlikning zichligi katta bo'lsa o'sha suyuqlik tomonidan jismga ta'sir qiluvchi itarib chiqaruvchi kuchning miqdori son jihatdan katta bo'ladi» degan xulosa kelib chiqadi. O'quvchilar bu xulosani isbotini tajribada ko'rishi mumkin [1,7].

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, o'quvchilarda fizika faniga oid bilimlarni shakllantirishda masalalarning o'rni benihoya katta. Xuddi boshqa turdagi masalalar kabi eksperimental masalalar ham fizika ta'limida o'zining xususiy harakterlari bilan ajralib turadi. Eksperimental masalalar orqali hozirgi kunda ko'p bora tilga olinayotgan "O'quvchi kreativ faoliyatini rivojlantirish"ni amalga oshirishda yaxshi natijalarga erishish mumkin. Faqat buning uchun pedagoglar tomonidan eksperimental masalalarni ishlash jarayoni to'g'ri tashkillashtirilishi muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar:

1. B.M.Mirzahmedov, N.A.G'afurov, F.F.Toshmuhammedov. Fizika o'qitish metodikasi kursidan o'quv eksperimenti. -T.: O'qituvchi, 1989.

2. O'. Sultonova. Fizikadan masalalar yechish to'garak mashg'ulotlarini o'tkazish texnologiyasi. Toshkent-2002 yil.

3. Shaxmayev N.M., Pavlov N.I., Тыщук V.I. Fizicheskiy eksperiment v sredney shkole. – M.: Prosveshchenie, -1991. –S. 223.

4. https://bookshop.canterbury.ac.uk/Teaching-Creative-Thinking-Developing-learners-who-generate-ideas-and-can-think-critically_9781785832369 (accessed on 26 March 2018).

5. Shodiyev D.Sh. Fizika – 9. - T.: Ma'naviyat, 2002. - 160 b.

6. Shukurov A. Maktablarda texnik to'garaklarni olib borish. -T.: O'qituvchi, 1985.

7.A.Ismailov [va boshq.]. Kreativ fikrlashni baholash. Toshkent: "Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazining matbaa bo'limi", 2021-yil. – 92 bet.



INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK DASTURIY VOSITADAN FOYDALANISH METODIKASI PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

G.T. Xaliqova, Navoiy viloyat PYaMO'MM katta o'qituvchisi

Mazkur maqolada informatika va axborot texnologiyalari o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda pedagogik dasturiy ta'minotdan foydalanish pedagogik muammo sifatida tadqiq qilingan bo'lib, bunda uning mazmuni, maqsadi va uni pedagoglarda takomillashtirish zarurati bo'yicha to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: *Kompetensiya, kompetentlik, kompetentli yondashuv, kasbiy kompetensiyalar, kasbiy faoliyat, shaxsiy fazilat, pedagogik imkoniyat, tamoyillar, shakl va vositalar*

В данной статье использование педагогического программного обеспечения в развитии профессиональной компетентности учителей информатики и информационных технологий исследовано как педагогическая проблема, обсуждены ее содержание, цель и необходимость ее совершенствования педагогами.

Ключевые слова: *компетентность, компетентность, компетентностный подход, профессиональные компетенции, профессиональная деятельность, личностные качества, педагогические возможности, принципы, формы и инструменты*

In this article, it has been discussed as a pedagogical problem and its content, proposed, the needs of improvement pedagogues. The professional competence of informatics and information technology teachers have been researched. By the use of pedagogical software in the development.



Key words: *Competence, competence, competent approach, professional competences, professional activity, personal quality, pedagogical opportunity, principles, forms and tools*

Mamlakatimiz mustaqillik yillarida ta'lim tizimi va kadrlar islohoti kadrlar tayyorlashni zamon talablari darajasiga ko'tarish borasida muhim chora-tadbirlar belgilandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4963-son Qarori ta'limni rivojlantirish, ijodiy, ijtimoiy faol, ma'naviy boy va yuqori malakali shaxsni shakllantirish raqobatbardosh kadrlar va pedagog kadrlar tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish o'qituvchilarni malakasini oshirishga qaratilgan. Ushbu tizimdagi raqamli texnologiyalar kommunikasion vositalaridan keng va samarali foydalanish bo'yicha amaliy ishlar bajarilmoqda.

Ko'pgina xorijiy olimlar dasturiy ta'minot yordamida o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish ustida ishladilar. Shu jumladan K. Ballavan va uning hamkasblari "Ta'lim dasturlarining o'quvchilarning axborot savodxonligi va o'qituvchilarning kasbiy mahoratiga ta'siri"[5] mavzusida ilmiy ish olib bordilar. O'rganish natijalariga ko'ra, zamonaviy ta'lim dasturlarini qo'llash orqali o'quvchilar va o'qituvchilarning axborot savodxonligi darajasi sezilarli darajada oshdi.

A. A. Martynenko "Ta'lim dasturlarini qo'llash asosida informatika o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish"[6] mavzusida ilmiy tadqiqot olib bordi. A.A.Martinenkoning ilmiy izlanishlari informatika o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini o'quv dasturlari yordamida rivojlantirishga bag'ishlangan. Informatika o'qituvchilarining ta'lim muhitida kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga kompleks yondashuvni ta'minlaydi. Ilmiy ishda informatika o'qituvchilari-

ning kasbiy kompetensiyasini o'quv dasturlari yordamida rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilinadi.

Rossiyalik olim Lukina T.N. "Bo'lajak informatika o'qituvchilari-ning axborot kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik shartlari" mavzusida ilmiy tadqiqot olib bordi [7]. Olima bo'lajak informatika o'qituvchisining axborot kompetensiyasini shakllantirish zaruriyatini dolzarb qiladigan pedagogik shartlarni belgilaydi, shuningdek, axborot kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik shartlarini nazariy asosladi. U Informatika fani o'qituvchilarining axborot kompetensiyasini shakllantirishning funksional modeli ishlab chiqib va ushbu model asosida bo'lajak informatika o'qituvchilariga axborot kompetensiyasi darajasini oshirish imkoniyatini beruvchi tanlov tizimini ishlab chiqdi.

Mamlakatimizning ko'plab olimlari Informatika va axborot texnologiyalari o'qituvchilarini pedagogik dasturiy ta'minotdan foydalanish metodikasi bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan.

Shulardan: Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori S.M. Djumaboev tinglovchilarning elektron o'quv muhitida kompyuterni modellashtirish bo'yicha kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha tadqiqot o'tkazdi [8]. Ilmiy-tadqiqot ishlarida o'qituvchilar elektron ta'lim vositalari oliy ta'lim muassasalarida tinglovchilarning kompyuterda modellashtirish kompetensiyalarini shakllantirishning asosiy vositasi ekanligini ta'kidladi.

Pedagogika fanlari falsafa doktori L.M. Umarov "Elektron axborot ta'lim resurslari asosida pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishni boshqarishni takomillashtirish (xalq ta'limi pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimi misolida)" [9] mavzusida ilmiy tadqiqot ishlari olib bordi. Tadqiqot maqsadi elektron axborot ta'lim resurslari asosida o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat. Umarov L. uzluksiz ta'lim tizimida kompetensiyaga asoslangan yondashuv asosida o'qituvchilar



tayyorlashni boshqarish (akademik, funksional va shaxsiy) asosida masofaviy ta'lim resurslarini ishlab chiqdi. Elektron axborot ta'lim resurslarining klassifikatorlari mahsuldorlik, qobiliyat (kompyuter moslashuvi asosida o'quv materiallarini taqdim etish usuli) bo'yicha malaka oshirish kurslarining mazmuni va qismlari asosida ishlab chiqdi.

Muallif o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha ko'plab muhim ishlar amalga oshirildi. Biroq, bugungi kunda raqamli texnologiyalarning rivojlanishi bilan birga, andragogika tamoyillari asosidagi pedagogik dasturiy vositalar orqali individual rivojlanish traektoriyasi asosida o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish imkoniyatlari ham hal qilinmagan. Demak, O'zbekistonda ta'limning o'ziga xos xususiyatini hisobga olib, pedagogik dasturiy ta'minot yordamida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish zarurligini ko'ramiz. Pedagogik dasturiy ta'minotdan foydalanish informatika va axborot texnologiyalari o'qituvchilarining kompetensiyalarini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega. Biroq bunday vositalardan samarali foydalanish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilash, sifatli o'qituvchilar malakasini oshirish, dasturiy ta'minotni standartlashtirish, pedagoglarning bunday vositalardan foydalanishning samarali usullaridan xabardorligini oshirish kabi qator muammolarni hal etish zarur. Pedagogik dasturiy ta'minot Pedagogik dasturiy ta'minot (PDV) - kompyuter texnologiyasi yordamida o'quv jarayonini qisman yoki to'liq avtomatlashtirish maqsadli didaktik vositadir. O'quv jarayonining samaradorligini oshirishda pedagogik dasturiy ta'minot rivojlanishning istiqbolli shakllaridan biri Pedagogik dasturiy vositalarni quyidagilarga ajratish mumkin:- o'rgatuvchi dasturlar – tinglovchilarning bilim darajasi va qiziqishlaridan kelib chiqib yangi bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltiradi;-



– test dasturlari – egallangan bilim, malaka va ko'nikmalarni tekshirish yoki baholash maqsadlarida qo'llaniladi;

– mashq qildirgichlar - avval o'zlashtirilgan o'quv materialini takrorlash va mustahkamlashga xizmat qiladi;- o'qituvchi ishtirokidagi virtual o'quv muhitini shakllantiruvchi dasturlar. birinchi navbatda, pedagogik yordamning asosiy tushunchalari, tasnifi va turlarini o'rganish kerak.

“Pedagogik dasturiy ta'minot” konsepsiyasida boshqacha talqin etiladi, ammo ko'pchilik olimlarning fikrlari o'xshashdir. Misol uchun, Kuxtin D.V “Pedagogik dasturiy ta'minot ta'lim tizimini o'rganish jarayonida foydalanish uchun mo'ljallangan alohida dastur va dasturiy paket hisoblanadi” deb ta'riflaydi. N.N.Gorlushkina “Pedagogik dasturiy ta'minot kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish asosida o'quv jarayonini texnologik qo'llab-quvvatlash” ekanligini ta'kidlaydi. 1. Informatika va axborot texnologiyalari o'qituvchilarini tayyorlashda pedagogik dasturiy ta'minotdan foydalanish muammolari:

– Ko'pgina o'qituvchilar o'quv jarayonini yanada samarali amalga oshirishga yordam beradigan turli xil dasturiy mahsulotlar bilan tanish emas. Bu muammo, chunki pedagogik dasturiy ta'minot o'qituvchining ishini sezilarli darajada osonlashtirishi va o'qitish samaradorligini oshirishi mumkin.

– dasturiy ta'minot mavjudligiga cheklovlar. Ba'zi o'qituvchilarni tayyorlash dasturlari ko'plab ta'lim muassasalari uchun juda qimmat bo'lishi mumkin. Bu cheklanish informatika va axborot texnologiyalari o'qituvchilarini samarali tayyorlashga to'sqinlik qilishi mumkin, chunki ular zamonaviy o'qitish uslublari va texnologiyalari bilan yaqindan tanisha olmaydi.

– Pedagogik dasturlarni o'rganish va o'zlashtirish uchun vaqt yo'qligi. Informatika va axborot texnologiyalari o'qituvchilari katta hajmdagi ishlar bilan band bo'lishi va yangi dasturiy mahsulotlarni

o'rganish va o'zlashtirish uchun etarli vaqtga ega bo'lmashligi mumkin. Bu bunday dasturiy ta'minotdan samarali foydalanishga to'sqinlik qilishi mumkin.

– Qo'llab-quvvatlash va dasturiy ta'minot yangilanishlarining etishmasligi. Agar dasturiy ta'minot ishlab chiqaruvchisi uni qo'llab-quvvatlash va yangilashni to'xtatsa, o'qituvchilar ushbu dasturdan foydalanishda muammolarga duch kelishlari mumkin.

Informatika va axborot texnologiyalari o'qituvchilarini tayyorlashda pedagogik dasturiy ta'minotdan foydalanish istiqbollari:

– bilimlarni baholashni avtomatlashtirish vositalarini ishlab chiqish. Pedagogik dasturiy ta'minot yordamida o'qituvchilar tinglovchilar bilimini baholash vaqtini sezilarli darajada qisqartirishi mumkin. Avtomatlashtirilgan tizimlar sizga topshiriqlarni samarali tekshirish, baholash va o'quv materialining o'tishi haqida hisobot berish imkonini beradi.

– Interfaol o'quv dasturlari va o'yin ilovalarini ishlab chiqish. Ta'lim dasturlari o'qituvchilarga interaktiv o'quv dasturlari va o'yinlardan foydalanish imkoniyatini beradi, bu o'qituvchilar uchun o'rganishni yanada qiziqarli va qiziqarli qilishga yordam beradi. Bunday ilovalar o'quv materialini chuqurroq o'zlashtirishga va asosiy vakolatlarni rivojlantirishga yordam beradi.

– Onlayn ta'limning rolini kuchaytirish. Pedagogik dasturiy ta'minotdan foydalangan holda o'qituvchilar dars va darslarni onlayn tarzda o'tkazishlari mumkin. Bu esa ta'lim chegaralarini kengaytirish va masofadan turib yoki chekka hududlarda yashovchi tinglovchilar uchun yuqori sifatli ta'lim olish imkonini beradi.

– Bulutli texnologiyalardan foydalanish. Bulutli hisoblash o'qituvchilar va tinglovchilarga ta'lim resurslari va ilovalari bilan ishlash, shuningdek, birgalikda ma'lumot yaratish va almashish imkonini beradi. Bu o'quv materialining mavjudligini yaxshilaydi,



hamkorlikni osonlashtiradi va o'quvchilarni o'quv jarayonida faol bo'lishga undaydi.

– treningni individuallashtirish. Pedagogik dasturiy ta'minot yordamida o'qituvchilar har bir tinglovchining ehtiyojlarini hisobga olgan holda individual ta'lim rejalarini tuzishlari mumkin. Ushbu yondashuv ta'limni har bir tinglovchining bilim darajasi va qiziqishlariga moslashtirishga imkon beradi, bu esa materialni yanada samarali o'zlashtirishga yordam beradi.

– virtual va kengaytirilgan haqiqatni joriy etish. Virtual va to'ldirilgan reallik texnologiyalari o'qituvchilarga interfaol va amaliy mashg'ulotlar yaratish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Bu o'quv materialini tushunishni sezilarli darajada yaxshilaydi va o'rganishni yanada samarali qiladi.

Ushbu muammoni bartaraf etishning yana bir yo'li - zamonaviy pedagogik yondashuvlar va o'qitish usullaridan faol foydalanishdir. Informatika va axborot texnologiyalari o'qituvchilari tinglovchilar uchun samarali va qiziqarli ta'limga hissa qo'shadigan eng yangi metodologiya va vositalardan xabardor bo'lishlari kerak. Bunga interaktiv texnologiyalardan foydalanish, turli onlayn resurslar, loyiha faoliyati, sanoat hamkorliklari va boshqalar kiradi.

Informatika va axborot texnologiyalari o'qituvchilarining kasbiy kompetentsiyasini shakllantirish muammosini bartaraf etish uchun ta'lim muassasalari va tashkilotlarining yordami ham zarur. O'qituvchilarni qulay va dolzarb o'quv materiallari bilan ta'minlash, o'qituvchilar uchun seminarlar, treninglar va konferensiyalar o'tkazish, ixtisoslashtirilgan malaka oshirish va malaka oshirish dasturlarini ishlab chiqish – bularning barchasi o'qituvchilarning bu boradagi muvaffaqiyatlariga xizmat qilishi mumkin.

Umuman olganda, pedagogik dasturlardan foydalanish, zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanish, ta'lim muassasalari va hamkasblarni qo'llab-quvvatlash, shuningdek, individual yondashuv



informatika va axborot texnologiyalari o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish muammosini bartaraf etishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to’g’risidagi nizomni tasdiqlash haqida” Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 17 yanvardagi 25-son qarori.

2. “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo’llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to’g’risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 25 yanvardagi PQ-4963-son qarori.

3. Кухтин, Д. В. Электронное обучение. [Электронный ресурс]. – http://hotline.ua/knigi/author/kuhtin_pv-232467/.

4. Горлушкина Н.Н. Педагогические программные средства: Учебное пособие [Электронный ресурс]. – https://e.sfukras.ru/pluginfile.php/993876/mod_resource/content/1/Горлушкина%20Н.Н..pdf

5. Dissertation: The influence of the educational program on the information literacy of students and professional skills of teachers” by Ballavan K., Kandasami S., and Rajesh S. 2017. PhD thesis, Pradeshi University.

6. Мартыненко А. А. (2019). Развитие профессиональной компетентности учителей информатики на основе использования образовательных программ. Научно-исследовательская работа на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. Минск.

7. Лукина.Т.Н. Педагогические условия формирования информационной компетентности будущих учителей информатики: Автореф. дисс. ... докт. Пед. наук. – Якутск: 2005. – 20 с.



UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA GEOMETRIYANI O'QITISHNING ME'YORIY OMILLARI

I. G. Tursunov, CHDPU professori, f.-m. f.d.

Z.A.Narimbetova, CHDPU katta o'qituvchisi, p.f.f.d. (PhD).

Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida Geometriya fanini o'qitishning me'yoriy faktorlari to'g'risida fikr yuritilgan va tavsiyalar bildirilgan.

Tayanch so'zlar: ta'lim, maktab, fan, Geometriya, o'quv, bilim, o'quvchi, o'rganish, o'zlashtirish.

В статье рассматриваются нормативные факторы преподавания геометрии в общеобразовательных школах и даются рекомендации.

Ключевые слова: образование, школа, наука, Геометрия, учеба, знание, ученик, обучение, освоение.

The article discusses the normative factors of teaching Geometry in general secondary schools and gives recommendations.

Key words: education, school, science, Geometry, study, knowledge, student, learning, mastering.

Mamlakatimiz umumiy o'rta ta'lim tizimida STEAM xalqaro ta'lim dasturi va baholash standartlarini joriy etish asosida tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika fanlarini uyg'un o'qitish orqali o'quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlash, ularda tizimli tahlil hamda mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish vazifalari belgilab berildi. Bu borada matematika turkumidagi fanlarni o'qitish texnologiyalarini takomillashtirish orqali o'quvchi shaxsining matematik va geometrik kompetensiyalarini umumiy o'rta ta'lim bosqichida rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasining 2022-2026 yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekiston strategiyasida



[4] umumiy o'rta ta'lim tizimida matematika turkumiga kiruvchi fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'qitish, yoshlarning matematik va geometrik qobiliyatlarini rivojlantirish orqali mamlakatda ilm-fanga tayangan innovatsion iqtisodiyotni tarkib toptirish vazifalarini amalga oshirishga alohida e'tibor berildi. O'zbekiston Respublikasining 2022-2026 yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekiston strategiyasi"da farovon hayot, inson qadrlanadigan jamiyat va xalqparvar davlatni barpo etishda ilm-fanga asoslanish asosiy vazifa sifatida belgilangan [1]. Shu jihatdan umumiy o'rta ta'lim maktablarida Matematika turkumidagi, jumladan, Geometriya fanini o'qitishning metodikasini yangilab borish, rivojlantirish va bu jarayonga yangi asosdagi metodikalarni joriy etish dolzarb bo'lib turibdi. Mazkur masalalar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-son "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan tasdiqlangan "2020-2023 yillarda O'zbekiston Respublikasida Matematika fanlari bo'yicha ta'lim sifatini yaxshilash, ilmiy-tadqiqotlarning natijadorligini va amaliy ahamiyatini oshirishning maqsadli Dasturi"da ham belgilangan [2]. Shu sababli umumiy o'rta ta'lim maktablarida Geometriya fanini o'qitish metodikasini zamonaviy talablar darajasida rivojlantirish dolzarb bo'lib turibdi. Bu o'rinda e'tiboringizni ana shu masalaning me'yoriy faktorlari tahliliga tortamiz.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida Geometriya fanini o'qitishning me'yoriy faktorlari deganda quyidagilar nazarda tutiladi:

- mazkur fanni o'qitish bo'yicha davlat ta'lim standartlari va malaka talablari, o'quv reja, dastur va darsliklari;
- ushbu fanni o'qitishning an'anaviy va noan'anaviy metodlari hamda texnologiyalari;
- bu fanni o'qitish metodikasini rivojlantirish bo'yicha milliy va xalqaro ilmiy-tadqiqotchilik tajribalari;
- fanni o'qitish bo'yicha tajribali o'qituvchilarning individual metodlari.



Umuman, umumiy o'rta ta'lim maktablarida Geometriya fanini o'qitish bo'yicha davlat ta'lim standartlari va malaka talablari xalqaro ta'lim dasturlari hamda standartlari darajasida ishlab chiqilmoqda. Bu boradagi tasdiqlangan me'yoriy hujjatlar. Shu jihatdan bizning fikrimizcha, 10-11 sinflar Matematika turkumidagi o'quv fanlari, jumladan, Geometriya fani bo'yicha yangi davlat ta'lim standartlari va malaka talablarini ishlab chiqishda quyidagi ikki muhim hujjatga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

a) O'zbekiston Respublikasi Milliy malakalar ramkasi [3]. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 15-maydagi 287-sonli qarori bilan tasdiqlangan mazkur hujjatda malakalar ramkasi (qat'iy doirasi) belgilab qo'yilgan. Shu jihatdan umumiy o'rta ta'lim maktablarida Geometriya fanini o'qitish bo'yicha davlat ta'lim standartlari va malaka talablarining yangisini yaratishda ushbu malaka talablari ramkasida belgilab qo'yilgan quyidagilarga asoslanish kutilgan samarani beradi:

1) bilimlar majmuini berish:

- taqdim etilayotgan ma'lumot va axborotlarning haqqoniyligi;
- taqdim etilayotgan bilimlarning innovatsiyaviyligi;
- nazariy va amaliy bilimlarning uyg'unligi.

2) mahorat va ko'nikmalar:

- kasb vazifalarini bajarishning ko'p variantga egaligi va ularning amaliyot bilan bog'liqligi;
- muayyan fan bo'yicha noaniqlik va murakkablikning muntazam bartaraf etib borilishi.

3) kompetensiyalar:

- mustaqil ijro intizomiga ega bo'lish;
- o'z bilimi va ko'nikmalarini amaliyotda qo'llay olish;
- ko'nikma va malakalarni shakllantirishda zamonaviy yondashuvlarga asoslanish.



E'tibor berilsa, mazkur ko'rsatmalar yangidan shakllantiriladigan umumiy o'rta ta'lim maktablarida Geometriya fanini o'qitish bo'yicha davlat ta'lim standartlari va malaka talablarining negizlari sifatida qabul qilinishi mumkin.

b) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-maydagi "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. Mazkur qarorda Matematika turkumidagi, jumladan, Geometriya fanini umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitish uchun belgilanadigan davlat ta'lim standartlari va malaka talablari bo'yicha muhim vazifalar qo'yilgan. Ularning asosiylari quyidagilardan iborat bo'lib, Geometriya fanini o'qitish bo'yicha davlat ta'lim standartlari va malaka talablarida aks etishi maqsadga muvofiq bo'ladi:

- 10-11 sinflarda Geometriya fanini o'qitishda mavzular bo'yicha to'liq uzviylikni ta'minlash;

- ta'limning mazkur bosqichida Geometriya fani bo'yicha beriladigan o'quv materiallarining o'quvchilarning qulay o'zlashtirishi, qiziqish bilan munosabatda bo'lishi va mavzular bo'yicha aniq ko'nikmalarga ega bo'lishiga yo'naltirilishi;

- mazkur fanni o'qitishda umumiy o'rta ta'lim maktabi va oliy ta'lim muassasasi hamkorligi mexanizmlariga tayanish;

- 10-11 sinflarda Geometriya fani vositasida o'zlashtiriladigan bilim, ko'nikma va malaka kompetensiyalari ko'lamini aniq belgilab qo'yish;

- ushbu fan bo'yicha o'quvchilarning o'zlashtirganlik darajasini baholashning mutlaqo yangi tizimini ishlab chiqish.

Bularning barchasi Geometriya fani bo'yicha ishlab chiqiladigan yangi asosdagi davlat ta'lim standartlari va malaka talablarini xalqaro ta'lim dasturlari talablari asosida yaratish imkonini beradi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikai Xalq Ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli farmoni.

2. Narimbetova Z.A. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida o'quvchilarning geometrik kompetensiyalarini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida // "Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендирий". Ilmiy-metodik jurnal. – Nukus. №1/3 (aprel). 2023.

3. Narimbetova Z.A. Geometriya fanini o'qitishning axborot-kommunikatsion masofaviy ta'lim metodi // "Экономика и социум". Ilmiy-metodik jurnal. – M., №12(91). 2021, 1125-1134 стр.

4. Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Yoshlar – 2030" xalqaro dasturi. // www.Ziyonet

5. <https://www.markaz.tdi.uz>

6. <https://t.me/milliymarkaz>

7. <https://www.uzedu.uz>



O'QUVCHILAR TABIIY-ILMIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING MASOFAVIY TA'LIM AMALIYOTI

F.I.Ochilov, Chirchiq DPU v.b.dotsenti, p.f.b.f.d. (PhD).

Maqolada o'quvchilar tabiiy-ilmiy tafakkurini rivojlantirishning masofaviy ta'lim amaliyotiga doir ayrim metodik xususiyatlar va ularning ta'lim samaradorligini oshirishi haqida fikr yuritilgan.

Tayanch so'zlar: masofaviy ta'lim, tabiiy-ilmiy tafakkur, amaliyot, texnologik metodika, o'quv jarayoni, elektron adabiyotlar, tabiiy fanlar.

В статье рассматриваются некоторые методические особенности дистанционной образовательной практики развития естественнонаучного мышления учащихся и повышения их образовательной эффективности.

Ключевые слова: дистанционное образование, естественнонаучное мышление, практика, технологическая методология, учебный процесс, электронная литература, естественные науки.

The article discusses some methodological features of distance educational practice for developing students' natural scientific thinking and increasing their educational effectiveness.

Key words: distance education, natural science thinking, practice, technological methodology, educational process, electronic literature, natural sciences.

Jamiyatimizning innovatsion rivojlanish sharoitida ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini kengaytirish hamda ularni mazkur masalalardan foydalanishga tayyorlash dolzarb hisoblanadi. Chunki innovatsion jamiyat sharoitida rivojlanishning har xil holati va vaziyatlariga ta'lim oluvchilar tayyor turishlari kerak. Bu masala COVID-19 pandemiyasi kabi ijtimoiy murakkab sharoitlarda ta'lim va tarbiya berishning turli shakllaridan foydalanishni taqozo



etishi bilan muhimdir. Shu jihatdan umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining tabiiy-ilmiy tafakkurini rivojlantirishda ta'limning noan'anaviy va tezkor shakllaridan foydalanish ham muhim o'rin tutadi. Ana shunday shakllardan biri masofaviy ta'lim amaliyotidir. Mazkur o'rinda ana shu masalaning tahliliga e'tiboringizni tortamiz.

Masofaviy ta'lim mazmuni. Masofaviy ta'lim axborot kommunikatsiya texnologiyasi vositasida amalga oshiriladigan pedagogik jarayonda o'ziga xos bilim va ko'nikma berish shakllaridan biri bo'lib, qo'yilgan maqsad va vazifalarni tezkor ravishda amalga oshirish imkoniyatlarini beradi [1; 256-b.]. Shu ma'noda masofaviy ta'lim mazmuniga quyidagi xususiyatlar xos:

- a) masofadan turib ta'lim berish;
- b) zamonaviy texnik vositalar imkoniyatlariga asoslanish;
- v) ta'lim berishda istalgan vaqt rejimiga amal qilish.

Masofadan turib ta'lim berishda ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar vizual aloqada bo'lishadi. Bu hol ta'lim ishtirokchilarining erkin harakat qilishlariga imkoniyat beradi. Aynan erkinlik, o'zaro ishonch, hamkorlik va topshiriqlarni o'z vaqtida bajarish kabi tamoyillar masofaviy ta'limning asoslarini tashkil etadi. Shu sababli muayyan fan bo'yicha yoki ta'lim yo'nalishi bo'yicha masofaviy ta'lim amalga oshirilayotganida maxsus dasturlarga asoslaniladi. Bunday dasturlarda asosiy e'tibor tezkor ravishda ta'lim oluvchilarda nazariy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish asoslari yaxlit va ixcham holda o'z ifodasini topadi. Shu sababli masofaviy ta'limning mazmunida o'quv dasturlarini oqilona tayyorlash, o'quv materiallarini takomillashtirib borish va ta'lim jarayoniga yangi ma'lumotlarni tatbiq etish muhim o'rin tutadi. Bundan tashqari, masofaviy ta'lim nafaqat bir mamlakat yoki hudud, balki butun dunyo bo'yicha ta'lim berish imkoniyatlariga ega. Bunda fanlar bo'yicha yetuk mutaxassislarning tajribalaridan unumli foydalanish ham o'ziga xos xususiyat hisoblanadi. Shu jihatdan XX asrning 90-yillaridan boshlab YuNESKO tashkiloti masofaviy



ta'limni dunyo miqyosida rag'batlantirib kelmoqda. Mamlakatimiz ham 2021-yildan boshlab COVID-19 ijtimoiy murakkab sharoiti sababli masofaviy ta'limni amaliyotga kiritdi. Ta'kidlash lozimki, bu borada mamlakatimiz ta'lim tizimi qisqa muddatda milliy tajribaga ega bo'ldi. O'z navbatida ta'lim oluvchilar va umuman ta'lim ishtirokchilari masofaviy ta'lim imkoniyatiga ega bo'lganligini eslatib o'tish joiz.

Masofaviy ta'limni amalga oshirish jarayonida eng zamonaviy texnik vositalarga asoslaniladi. Bu borada kompyuter, teleradio, Internet jahon axborot tarmog'ining vositalari, mobil aloqa vositalari kabilardan oqilona foydalanish masofaviy ta'limning asoslarini tashkil etadi. Shu sababli mamlakatimizda ta'lim tizimida axborot-telekommunikatsion vositalarni rivojlantirish va ular asosida ta'lim jarayonini amalga oshirish ishlari yo'lga qo'yilgan. Misol uchun, axborot-telekommunikatsion asoslari bo'yicha bilim va ko'nikma beruvchi Informatika o'quv fani 2022-2023 o'quv yilidan boshlab 1-sinfda o'qitila boshlandi. Bu hol masofaviy ta'limni amalga oshirishning imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Demak, masofaviy ta'lim ta'lim oluvchilarning faol bo'lishini taqozo etadi.

Masofaviy ta'limni amalga oshirish jarayonida vaqt rejimidan ham o'ziga xos tarzda foydalaniladi. Unga ko'ra, ta'lim oluvchilarning istalgan vaqt muddatida ta'lim jarayoni amalga oshiriladi va bunda ta'lim oluvchilarning huquqlari ustuvor hisoblanadi. Shu jihatdan masofaviy ta'limni sutkaning istalgan vaqtida amalga oshirish imkoniyatlari mavjud va bu hol ta'lim oluvchilarning huquqlarini to'liq ta'minlash imkonini ham beradi. Shu ma'noda bizning yondashuvimizga ko'ra, masofaviy ta'lim sifatli ta'limga erishishning muhim omillaridan hisoblanadi. Negaki ta'limning bu shaklida ta'lim oluvchining huquqlari va faolligi ustuvor qabul qilinib, mazkur masala sifatli ta'limga erishishning negizlaridan biridir.

E'tibor berilsa, masofaviy ta'lim shakli o'ziga xos mazmun va xususiyatlarga ega bo'lib, undan oqilona foydalanish muhim ahamiyatga egadir.



Masofaviy ta'lim imkoniyatlaridan foydalanish. O'quvchilarning tabiiy-ilmiy tafakkurini rivojlantirishda masofaviy ta'lim imkoniyatlaridan foydalanish ham muhim amaliy mexanizmlardan biridir. Buning uchun quyidagilarga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

a) tabiiy fanlar bo'yicha mutaxassislarning masofaviy ta'lim mashg'ulotlarini tashkil etish;

b) o'quvchilarning tabiiy-ilmiy tafakkurini rivojlantirishda masofaviy ta'limdan oqilona foydalanish;

v) masofaviy ta'lim o'quv materiallarining elektron nusxalari majmuini tayyorlash.

Mamlakatimizning tabiiy fanlar bo'yicha yetuk mutaxassislari asosan Toshkent shahri, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarning markaziy shaharlarida faoliyat yuritadi. Shu sababli ularning tabiiy fanlar bo'yicha mashg'ulotlarini kompyuter, TV va mobil aloqasi vositalari orqali tashkil qilish mamlakatimizning eng chekka hududlarida ta'lim olayotgan o'quvchilarning ham tabiiy-ilmiy tafakkurini kutilgan darajada rivojlantirish imkonini beradi. Misol uchun, o'quvchilar bunday mashg'ulotlarni kompyuter yoki mobil aloqa vositasiga yuklab olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunday o'quv materiallaridan o'quvchilar istalgan vaqtda foydalanishlari mumkin va yuzaga kelgan savollar hamda murojaatlar bilan ta'lim beruvchi yetuk mutaxassislarga murojaat qilish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Buning natijasida tabiiy fanlar bo'yicha mamlakatimiz shahar hududlarida tarkib topgan "aql markazlari"dan eng chekka hududlardagi umumiy o'rta ta'lim maktablari va o'quvchilari tomonidan o'zlashtirish imkoniyati yuzaga keladi. Shuningdek, o'quvchilarda yetuk mutaxassislarga tomonidan berilgan vazifalar va topshiriqlarni o'z vaqtida bajarish ko'nikmasini tarkib toptirish taqozo etiladi.

O'quvchilarning tabiiy-ilmiy tafakkurini rivojlantirishda masofaviy ta'limdan oqilona foydalanish muhim ahamiyatga egadir. Buning uchun



o'quvchilarning tabiiy-ilmiy tafakkurini rivojlantirishga yo'naltirilgan tabiiy fanlar bo'yicha o'quv materiallari, savollar majmui, topshiriqlar, amaliy vazifalar va ilmiy ishlanmalar maketlari to'plamini yaratish dolzarb hisoblanadi. Aynan ular asosida o'quvchilarning tabiiy-ilmiy tafakkuri rivojlantiriladi. Tabiiy fanlar bo'yicha yetuk mutaxassislar mazkur fanlarga doir mamlakatimiz va xorijiy mamlakatlarda amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari, yangiliklar va kashfiyotlarni muntazam masofaviy ta'lim vositasida o'quvchilarga taqdim etib borish mexanizmini yo'lga qo'yish dolzarb bo'lib turibdi. Shu ma'noda bu borada xorijiy mamlakatlarda amalga oshirilayotgan ilmiy yangiliklar bo'yicha muntazam ma'lumotlarni o'quvchilarga taqdim etib borish ularning tabiiy-ilmiy tafakkurini rivojlantirish mexanizmlaridan biridir.

O'quvchilarning tabiiy-ilmiy tafakkurini rivojlantirishda masofaviy ta'lim amaliyotidan foydalanish muayyan ishlarni amalga oshirishni taqozo etadi. Bu borada ayniqsa, tabiiy fanlar bo'yicha yangi avlod darsliklari, o'quv adabiyotlari, ishlanmalar va nazariy-metodik tavsiyalar majmuining elektron nusxalarini yaratish hamda amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Tabiiy fanlar bo'yicha elektron adabiyotlar majmuini yaratishda didaktik ta'minot masalasiga e'tibor berish muhim ahamiyatga egadir [2]. Unga ko'ra, tabiiy fanlar bo'yicha adabiyotlarning elektron nusxalari o'quvchilarning aqliy, jismoniy va estetik xususiyatlariga mos bo'lishi, ulardagi ma'lumotlarni yangilab borish imkoniyatlarining mavjudligi va o'quvchilarning o'zlashtirganlik darajasini kuzatib borish metodikasiga egaligi muhim o'rin tutadi. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida tabiiy fanlar bo'yicha bo'lajak o'qituvchilarning elektron adabiyotlar tayyorlash va ulardan foydalanish ko'nikmasini tarkib toptirish taqozo etiladi. Bularning barchasi o'quvchilarning tabiiy-ilmiy tafakkurini rivojlantirishda masofaviy ta'lim imkoniyatlaridan foydalanish asoslarini belgilaydi.

Diqqat qilinsa, o'quvchilarning tabiiy-ilmiy tafakkurini rivojlantirishda masofaviy ta'limdan foydalanish uchun nazariy,



metodik va amaliy ishlanmalar majmuini yaratish taqozo etiladi. Bizningcha, bu borada oliy pedagogik ta'lim muassasalarida amal qilinayotgan tabiiy fanlar bo'yicha o'quv adabiyotlarini o'quvchilarga moslashtirish muhim mexanizmlardan biridir.

Masofaviy ta'limdan foydalanish metodikasi. Mamlakatimizning umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini tabiiy-ilmiy tafakkurini rivojlantirishda masofaviy ta'lim imkoniyatlaridan foydalanish metodikasini ishlab chiqish dolzarb bo'lib turibdi. Bizning yondashuvimizga ko'ra, bunday metodikani ishlab chiqishda quyidagilarga e'tibor berish kutilgan samarani beradi:

- a) o'quvchilarga tabiiy fanlar bo'yicha tushunchalarni berish tavsifi;
- b) o'quvchilarga tabiiy fanlardan taqdim etiladigan o'quv materiallarni tanlash omillari;
- v) o'quvchilarga tabiiy fanlar bo'yicha bilim va ko'nikmalarni berish vositalari.

O'quvchilarga tabiiy fanlar bo'yicha tushunchalarni berish tavsifini belgilab olish muhim masalalardan biridir. Bunda tabiiy fanlar bo'yicha tushunchalar mazmunini, hajmini va ularni o'zlashtirish ko'lamini belgilash muhim ahamiyatga egadir. Shu ma'noda 1-4 sinflarda tabiiy fanlarning asosiy tushunchalarini o'quvchilarga tushuntirish, 5-9 sinflarda tabiiy fanlar asoslari bo'yicha to'liq bilim berish va 10-11 sinflarda o'quvchilarni tabiiy fanlar bo'yicha o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalaridan foydalanishga o'rgatish metodikasiga tayanish kutilgan samarani beradi. Bunday yondashuv o'quvchilarning yosh, jismoniy va aqliy imkoniyatlariga ham mos ekanligini ta'kidlab o'tish lozim. Shu tariqa umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarida tadrijiy ravishda tabiiy fanlar asoslari bo'yicha taassurot, tasavvur va idrok tarkib toptiriladi. Aynan mana shu ko'nikmalar tabiiy-ilmiy tafakkurning muhim asoslari ekanligini eslatib o'tish joiz. Bu borada misol uchun, pedagog olimlar tabiiy fanlar aro taqdim etiladigan tushunchalarning o'zaro aloqadorligini quyidagicha nazorat qilib borishni tavsiya etishadi: [3; c. 60]

Dastlabki ilmiy tushunchalar	Tabiiy o'quv fanlari					
	Tabiat-shunoslik	Atrofimizdagi olam	Geografiya	Biologiya	Zoologiya	Astronomiya
Notirik tabiat	+	+	+	+	+	+
Tirik tabiat	+	+	+	+	+	+
Fasllar	+	+	+	+	+	+
Atrof muhit	+	+	+	+	+	+
Vaqt va uning o'zgarishi	+	+	+	+	+	+
Tabiiy o'zgarish	+	+	+	+	+	+
Hududiy tabiat o'zgarishlari	+	+	+	+	+	+
Tuproq	+	+	+	+	+	+
O'simliklar dunyosi	+	+	+	+	+	+
Hayvonot olami	+	+	+	+	+	+

Bunda “+” belgisi o'quvchilarning tabiiy fanlar asoslarini o'zlashtirishlarini bildiradi. Shu jihatdan bunday kuzatuvni amalga oshirish o'quvchilarning tabiiy fanlar bo'yicha o'zlashtirish darajasini belgilab borish va kuzatish imkonini beradi.

O'quvchilarga tabiiy fanlar bo'yicha taqdim etiladigan o'quv materiallarini tanlashga e'tibor berish muhim ahamiyatga egadir. Buning uchun taqdim etiladigan o'quv materiallari o'quvchilarga tushunarli, oson va sodda xususiyatlarga ega bo'lishi kerak. Chunki tabiiy fanlar asoslari ilmiy tushunchalarga boyligi bilan farqlanib turadi. Shu ma'noda tabiiy fanlar bo'yicha har bir mavzu oxirida tegishli tushunchalar izohini taqdim etib borish metodikasiga asoslanish kutilgan samarani beradi. Buning natijasida o'quvchilarda tabiiy va ilmiy bilimlarning asoslarini kutilgan darajada tarkib toptirish imkoniyatiga ega bo'linadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilariga tabiiy va ilmiy bilimlarni berish jarayonida eng muhim vositalarga asoslanish maqsadga muvofiqdir. Bunday vositalarning asosiylari tabiat burchagi, geografik maydon, ekskursiya, dars, darsdan tashqari mashg'ulotlar va to'garaklar ekanligini eslatib o'tish joiz. Asosiy e'tibor qulay va




murakkab bo'lmagan vositalarga tayangan holda o'quvchilarning tabiiy va ilmiy bilimlari hamda ko'nikmalarini kengaytirishga qaratiladi. Shu sababli bu borada sinflar kesimi metodikasiga amal qilish maqsadga muvofiqdir.

E'tibor berilsa, masofaviy ta'lim vositasida tabiiy fanlar imkoniyatlaridan foydalanish bo'yicha o'ziga xos metodik asoslarga tayanish o'quvchilarning tabiiy-ilmiy tafakkurini rivojlantirishdagi muhim mexanizmlardan biridir.

O'quvchilar tabiiy-ilmiy tafakkurini rivojlantirishning masofaviy ta'lim amaliyotida kompyuter o'quv-texnik vositasiga asosan ishlab chiqilgan texnologik metodika asosida o'qitish jarayonini amalga oshirish kutilgan samarani beradi. Shu jihatdan bu o'rinda e'tiboringizni biz tomonimizdan ishlab chiqilgan quyidagi "TIT" nomli kompyuterli texnologiyaning tuzilishiga tortamiz.

Tabiiy-ilmiy tafakkur (TIT) kompyuterli texnologik metodikaning qurilmasi.

Mazkur texnologik metodikaning tavsifi quyidagicha:



M_1 – bu blokda tabiiy va ilmiy bilimlar majmui joylashtirilgan;

M_2 – mazkur blokda tabiiy fanlar bo'yicha laboratoriya mashg'ulotlari mavzulari kiritilgan;

M_3 – ushbu blokda tabiiy fanlar bo'yicha to'garaklar va ularda ishlab chiqiladigan ishlanmalar to'g'risida ma'lumotlar joylashtirilgan;

M_4 – bu blokda tabiiy va ilmiy bilimlarni kuchaytiruvchi qo'shimcha ma'lumotlar, tasvirlar va multimediali vositalar kiritilgan;

M_5 – ushbu blokda tabiiy-ilmiy tafakkurni rivojlantirishga asos bo'luvchi kitoblar, ilmiy tadqiqotlar va maqolalar ro'yxati joylashtirilgan;

M_6 – mazkur blokda tabiiy-ilmiy tafakkur rivojlanganlik darajasini aniqlovchi testlar majmui kiritilgan.

Ushbu texnologik metodikadan foydalanishning asoslari quyidagicha:

1) o'qituvchi kompyuter o'quv-texnik vositasi orqali masofadan turib o'quvchilarga bloklardagi ma'lumotlarni taqdim etadi;

2) o'quvchilar o'qituvchi tomonidan belgilangan muddatda masofadan turib kompyuter vositasida taqdim etilgan ma'lumotlarni o'zlashtiradi;

3) o'qituvchi M_6 blokida berilgan topshiriqlar bo'yicha o'quvchilarning tabiiy-ilmiy tafakkuri rivojlanganlik darajasini aniqlaydi;

4) agar o'quvchi ma'lumotlarni to'liq o'zlashtirgan bo'lsa, texnologik metodikadagi "ha" javobi chiqadi, agar o'quvchi ma'lumotlarni o'zlashtirmasa uning tabiiy-ilmiy tafakkurining rivojlanganlik darajasi "yo'q" ko'rsatkichini namoyon qiladi.

Kompyuter o'quv-texnik vositasiga asosan ishlab chiqilgan mazkur texnologik metodika o'quvchilarni qiziqtirish xususiyatiga ega, chunki o'quvchilar kompyuter vositasida taqdim etilgan ma'lumotlarni o'zlashtirishga qiziqishadi.

Ushbu texnologik metodikaning quyidagi imkoniyatlari mavjud:



1) o'qituvchi masofadan turib o'quvchilarning tabiiy-ilmiy tafakkurini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi;

2) eng chekka hududlarda istiqomat qiladigan o'quvchilar ham virtual muloqot vositasida o'qituvchi mashg'ulotlarida ishtirok etadi va ularning tabiiy-ilmiy tafakkurining rivojlanish ko'rsatkichlari ijobiy tomonga o'zgaradi;

3) oliy pedagogik ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilarning o'quvchilar tabiiy-ilmiy tafakkurini rivojlantirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlarini muntazam tashkil qilib borish yuzaga keladi;

4) o'quvchilar bunday mashg'ulotlarni o'zlari istagan vaqtda o'zlashtirish imkoniyatlariga ega bo'ladi;

5) buning natijasida o'quvchilarning tabiiy-ilmiy tafakkurini rivojlantirish bo'yicha o'ziga xos masofaviy texnologik metodikaga ega bo'linadi.

Shu sababli biz tomonimizdan ishlab chiqilgan ushbu texnologik metodikadan tabiiy fanlar o'qituvchilarining va bo'lajak o'qituvchilarning foydalanishi kutilgan samarani beradi.

Shunday qilib, o'quvchilar tabiiy-ilmiy tafakkurini rivojlantirishning masofaviy ta'lim amaliyoti keng imkoniyat beruvchi xususiyatlarga egadir. Buning uchun masofaviy ta'lim xususiyatlari, imkoniyatlari va ulardan foydalanish metodikasini o'zlashtirish muhim va dolzarb hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pedagogika. Ensiklopediya. II jild / tuzuvchilar: jamoa. – Toshkent. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2015. – 376 bet.

2. Mardonov Sh.Q. Pedagogika fanidan elektron-modulli ta'minotni tayyorlash texnologiyasi. – Toshkent. 2021

3. Пакулова В.М., Кузнецова В.И. Методика преподавания природоведения. – М.: "Просвещение". 1990. – С. 192



ТИНГЛОВЧИЛАРНИНГ РАҚАМЛИ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

*С.С.Жуманазаров, Тошкент шаҳар педагогларни янги
методикаларга ўргатиш миллий маркази*

Ушбу мақолада малака ошириш жараёнида тингловчиларнинг рақамли компетентлигини шакллантиришида рақамли саводхонлик даражасини баҳолаш масаласи қаралган

Калим сўзлар: рақамлаштириш, рақамли технологиялар, ахборот саводхонлиги, медиасаводхонлик, коммуникатив саводхонлик.

В данной статье рассматривается вопрос оценки уровня цифровой грамотности при формировании цифровой компетентности слушателей в процессе повышения квалификации.

Ключевые слова: цифровизация, цифровые технологии, информационная грамотность, медиаграмотность, коммуникативная грамотность

This article discusses the issue of assessing the level of digital literacy in the formation of digital competence of students in the process of advanced training

Keywords: digitalization, digital technologies, information literacy, media literacy, communication literacy.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 5 октябрдаги “Рақамли Ўзбекистон – 2030” стратегиясини тасдиқлаш ва уни самарали амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 6079-фармони билан маъқулланган “Рақамли Ўзбекистон-2030” стратегияси доирасида аҳолининг барча қатламларида рақамли кўникмаларни ривожлантириш мақсадида муайян тадбирлар белгиланган. Мазкур Фармоннинг 2.5-“Ахборот технологиялари



соҳасида таълим бериш ва малака ошириш йўналиши” бобида “рақамли технологиялардан фойдаланиш кўникмаларини баҳолаш механизмларини ишлаб чиқиш ва бунда қуйидаги жиҳатларни инобатга олиш:

- ахборот саводхонлиги (қарор қабул қилиш учун зарур бўлган маълумотларни топиш қобилияти);
- компьютер саводхонлиги (рақамли қурилмалар билан ишлаш қобилияти);
- медиа саводхонлиги (оммавий ахборот воситаларини танқидий ўрганиш имконияти);
- коммуникатив саводхонлик (замонавий рақамли алоқа воситаларидан фойдаланиш қобилияти);
- технологик инновацияларга (янги технологияларга) ижобий муносабатни шакллантириш” вазифаси қўйилган [1].

Таълим тизимига рақамли технологияларни жорий қилиниши ва ундан самарали фойдаланиш орқали таълим самарадорлигини таъминлаш мазкур тизимда фаолият кўрсатаётган педагоглардан ҳам рақамли технологиялардан фойдаланиш компетентлигини шаклланганлигини талаб этади. Ҳозирда таълим тизимига “Рақамлаштириш”, “Рақамли педагогика”, “Рақамли саводхонлик”, “Рақамли таълим”, “Рақамли таълим муҳити”, “Рақамли дидактика” каби тушунчаларнинг кириб келиши таълимда ҳам рақамлаштириш жараёнлари кетаётганлигини аңлатмоқда [2].

Рақамли жамият ва рақамли иқтисодиётга ўтиш даврида таълимнинг келажагиваривожланиши тик болари рақамлаштириш жараёнлари билан бевосита боғлиқ. Бу эса жамиятда илм-фан ва таълимга рақамли технологияларга асосланган янги муносабатлар шаклланишига асос бўлади.

Янги методикларга ўргатиш миллий марказларида умумтаълим мактабларининг педагог-ҳодимлари учун ташкил этилаётган малака ошириш жараёнида тингловчиларнинг

рақамли саводхонлигини шакллантириш билан бирга рақамли технологиялар биланишлашдаги компетентлигини ривожлантириш ҳам муҳим ҳисобланади. Чунки, мазкур компетентликнинг ривожланиши умумтаълим мактаблари педагог-ҳодимларининг иновацион педагогик фаолиятини шакллантиришнинг устувор йўналишларидан бири ҳисобланади.

Асосий қисм. Дунёдаги глобал ўзгаришлар, фан-техника соҳасининг жадал ривожланиши ҳамда ахборот технологияларининг ривожига асосланган ахборотлашган жамият муҳити таълим тизимига кучли таъсир этмоқда. Бугунги кунда ахборот технологияларининг ижтимоий ҳаётнинг барча соҳаларига тадбиқ этилиши, шунингдек, таълим тизимида кенг қўлланилиши педагоглар олдига бутунлай янги талабларни қўймоқда. Эндиликда педагоглар томонидан дарсларни самарали ташкил этишга қаратилган рақамли технологияларга асосланган инновацион билимларни эгаллаш ва уларни касбий фаолиятларида фойдаланишлари замон талабига айланиб бормоқда.

“Рақамли Ўзбекистон-2030” стратегиясида белгиланган вазифаларни амалга ошириш ҳамда малака ошириш жараёнида тингловчиларнинг рақамли компетентлигини шакллантириш учун дастлаб уларнинг рақамли саводхонлик даражасини баҳолаш зарурати пайдо бўлади. Бунинг учун махсус сўровнамалардан фойдаланиш тавсия этилади [3,4].

Мазкур қобилиятларни қамраб олган саволнома асосида Тошкент шаҳар педагогларни янги методикаларга ўргатиш миллий марказининг Аниқ ва табиий фанлар методикаси кафедраси томонидан 2023 йилнинг биринчи ярмида тингловчиларнинг рақамли саводхонлик индексини ҳисоблаш бўйича тадқиқот ишлари олиб борилди. Мазкур тадқиқотда 6 та фан йўналиши танлаб олинди ва 284 нафар тингловчи иштирок этди. Булар Математика фани тингловчилари-40 нафар, Она тили ва



адабиёт фани тингловчилари-43 нафар, Технология фани тингловчилари-37 нафар, Ўзбек(давлат) тили тингловчилари-42 нафар, Бошланғич таълим тингловчилари-45 нафар, Инглиз тили фани тингловчилари-39 нафар ва мусиқа фани тингловчилари 38 нафар иштирок этишди.

Сўровномага жалб қилинган тингловчиларнинг фан кесимларида педагогик стажи бўйича ҳам (1-жадвал) таҳлилий маълумотлар олинди.

1-жадвал. Тингловчиларни педагогик стаж бўйича тақсимооти.


Педагогик стаж	Математика	Она тили	Технология	Ўзбек тили	Бошланғич таълим	Инглиз тили	Мусиқа	Жами
1-5 йил	11	5	8	8	9	10	11	62
6-10 йил	7	5	11	2	6	15	6	52
11-15 йил	6	7	4	9	11	7	5	49
16-20 йил	1	3	7	6	6	3	5	31
21-25 йил	3	8	3	1	5	2	2	24
25 дан юқори	12	15	4	16	8	2	9	66
Жами	40	43	37	42	45	39	38	284

Тажрибавий тадқиқот жараёнида йўналишлар кесимида олинган натижаларнинг таҳлили 2-жадвалда келтирилган.

2-жадвал. Рақамли саводхонлик натижалари

Қобилиятлар	Математика	Она тили	Технология	Ўзбек тили	Бошланғич таълим	Инглиз тили	Муסיқа
Ахборот саводхонлиги	63.2	63.5	74.7	56.5	59.9	72.9	70.0
Компьютер саводхонлиги	76.6	76.2	77.1	61.3	74.4	76.7	79.0
Медиа саводхонлик	48.4	79.0	70.2	62.1	59.3	61.1	76.8
Коммуникатив саводхонлик	56.3	68.1	62.8	61.4	66.5	70.3	56.7
Инновацияларга муносабат	64.5	73.5	68.5	65.5	73.7	67.2	84.5

Фан йўналишлари бўйича сўровномада иштирок этган тингловчиларнинг тажрибавий тадқиқот жараёнида олинган натижалари (1-расм) таҳлил қилинди



1-расм. Тажрибавий тадқиқот натижалари



Таҳлил натижаларига асосланган ҳолда малака ошириш жараёнида тингловчиларнинг касбий фаолиятларида рақамли технологиялардан самарали фойдаланишларини таъминловчи ўқув дастурларининг мазмуни шакллантирилади. Бу эса уларнинг касбий фаолиятида рақамли технологиялардан самарали фойдаланишари орқали инновацион педагогик фаолиятини шакллантирилишида муҳим ўрин тутати.

Хулоса. Таълим тизимидаги замонавий рақамли технологиялар билан боғлиқ бўлаётган ўзгаришлар нафақат илмий билимларнинг ривожланишига, балки таълимда педагогик ва психологик билимларнинг такомиллашига ҳам тез таъсир кўрсатмоқда. Таълим жараёни - бошқарувнинг мураккаб ва ўзига хос тури ҳисобланади. Бу эса педагогик тадқиқот предмети бўлиб, уни тўғри олиб бориш, ўқитиш ва тарбиялашнинг психологик-педагогик назарияларига таянишни ўз ичига олади. Таълимга замонавий рақамли технологияларни жорий этиш ҳамда ундан фойдаланиш самарадорлигини оширишда ўқитувчиларнинг рақамли саводхонлигини баҳолаш ҳамда олинган натижаларни таҳлили асосида рақамли кўникмаларини ривожлантириш муҳим аҳамиятга эга. Бу эса замонавий ўқитувчининг касбий фаолиятида рақамли технологиялардан самарали фойдаланиши учун ўзига хос бўлган омиллардан бири ҳисобланади.

Мазкур мақолада малака ошириш жараёнида тингловчиларнинг рақамли компетентлигини шакллантиришнинг асоси бўлган рақамли саводхонлик даражасини баҳолаш ҳамда таҳлилий натижалар асосида малака ошириш жараёнидаги ўқув модуллари мазмунига янгича ёндашувларни аниқлаш мақсади қўйилган эди.



Фойдаланилган адабиётлар:

1. “Рақамли Ўзбекистон – 2010” стратегиясини тасдиқлаш ва уни самарали амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида. ЎЗР Президентининг Фармони ПФ-6079. 05.10.2020 й.
2. В. И. Токтарова, О. В. Ребко. Цифровая грамотность: понятие, компоненты и оценка// Vestnik of the mari state university. vol. 15, no. 2. 2021. DOI 10.30914/2072-6783-2021-15-2-165-177.;
3. А.А. Скулкин. Формирование цифрового образовательного пространства: адаптация цифровой педагогики//ISSN 1991-5497. МИР НАУКИ, КУЛЬТУРЫ, ОБРАЗОВАНИЯ. № 1 (86) 2021
4. С.С.Жуманазаров. Тингловчиларнинг рақамли технологиялардан фойдаланиш кўникмаларини ривожлантириш. FIZIKA, MATEMATIKA va INFORMATIKA// ilmiy-uslubiy jurnal.. T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti. 2023.№2. 97-101 б.
5. Жуманазаров С.С., Халикова Н.М. Таълимда рақамли саводхонлик даражасини баҳолаш//“Ta’lim tizimida fan, innovatsiya va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish istiqbollari: muammo va yechimlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi. Guliston, Sirdaryo viloyati XTXQTMOHM. 2022 y.



АНАНАВИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИ БИЛАН КРЕДИТ – МОДУЛЬ ТИЗИМИ ХУСУСИЯТЛАРИ

*Э.О.Шаринов, ҚарМИИ “Олий математика”
кафедраси мудири, доцент.*

Ушбу мақолада таълим жараёнида педагогик фаолият ва автоматлаштирилган ўқитиш тизими ҳамда кредит-модуль тизим ва ананавий таълим тизимларини хусусиятлари тўғрисида фикр юритилган. Талабаларнинг мустақил ишлашига намуна келтирилган.

***Калит сўзлар:** касбий, шахсий, дидактик, психологик, педагогик фаолият, автоматлаштирилган ўқитиш тизими, Болонья декларацияси, Европанинг ECTS модели, кредит-модуль тизими, ананавий таълим тизими.*

В данной статье рассматриваются педагогическая деятельность в образовательном процессе и особенности автоматизированной системы обучения и кредитно-модульной системы и традиционных образовательных систем. Приведен пример самостоятельной работы студентов.

***Ключевые слова:** профессиональная, личностная, дидактическая, психолого-педагогическая деятельность, автоматизированная система обучения, Болонская декларация, европейская модель ECTS, кредитно-модульная система, традиционная система образования.*

This article discusses pedagogical activity in the educational process and the features of the automated learning system and the credit-module system and traditional educational systems. An example of students' independent work is given.

***Keywords:** professional, personal, didactic, psychological and pedagogical activities, automated learning system, Bologna*

Declaration, European ECTS model, credit-modular system, traditional education system.

Ал Беруний таълим жараёнининг моҳиятини чуқур таҳлил қилиб, ўқитувчининг касбий ва шахсий тайёргарлигига қатор дидактик ва психологик талаблар қўяди, ҳамда педагогик фаолиятида қуйидагиларга: сезги органларининг маълумотларига кўра билишни давом эттириш; фанни ўрганаётганда фикрлаш, хотирлаб эсга олиш; ўрганилаётган илмларни таянч тушунчаларини пухта ўрганиб чиқиш; билим эгаллашда оддийдан мураккабга, далиллардан хулосаларга қараб бориш; фан тарихини ўрганиш; ҳодисаларни алоқадорликда ўрганиш кабиларга амал қилишни тавсия этади.

Л.А.Шкутина илмий ишида педагогик ва ахборот технологиялари интеграциясини асосий компоненти сифатида автоматлаштирилган ўқитиш тизими (АЎТ)ни яратиш ва жорий этиш уч босқичи:

биринчи босқичда фан ўқитувчилари томонидан яратилаётган АЎТ оптимал моделлари назарий ўрганилиб, асослаб берилади;

иккинчи босқичда, оддий машғулотларда, лаборатория шароитларида яратилган АЎТни дидактик имкониятлари текшириб кўрилади ва таҳлил қилинади;

учинчи босқичда эса, АЎТлари таълим жараёни амалиётида жорий этилишини таъкидлайди[20].

Ҳозирги кунда математика ўқитувчиси ўз ўқувчиларини илгаридан берилган фаолияти асосида эмас, мавжуд шароитда ўзининг ихтиёрий фаолиятини яратадиган, замонавий фикрлашга, ўқиш, ўрганишга, фаолият олиб боришга йўналтириши лозим.

Демак, бизнинг фикримизча замонавий ўқитувчи “ўзини” фанини ўрганибгина қолмасдан, балки, ўқув – тарбия жараёнида

педагогик ва ахборот технологиялардан унумли фойдаланишни ўрганиши зарур. Шунинг билан бирга техника ва технологияларнинг доимий янгиланиб туришини ҳисобга оладиган, таълим жараёнига янгилик кирита оладиган (новатор), тадқиқотчи, ижодий изланувчи қобилиятига эга бўлган, тарихий педагогик меросга танқидий баҳо берадиган, замон талабига тез мослаша оладиган, бўлажак математика фани ўқитувчиларини тайёрлаш бизнинг асосий вазифамиздир[30].

Бу вазифани бажаришда олий таълим тизимида шундай тизимни яратишда педагогик ва ахборот технологиялар интеграциясини АЎТ ёрдамида таълим жараёнини технологиялаштириш зарурияти сезилади. Таълим жараёнини технологиялаштириш таълим тизимга кредит-модуль тизимини киритишдир.

Юқоридагилардан келиб чиқиб, олий таълимда кредит-модуль тизимида бўлажак математика ўқитувчиларини педагогик ва ахборот технологиялари интеграцияси асосида методик компетентликни ривожлантириш жараёнида қуйидаги:

биринчидан, бўлажак математика ўқитувчилари таълим жараёнида масалаларни ечишда турли усуллари, педагогик ва ахборот технологияларини, дастурий таъминотларни ва АКТ воситаларининг қўлланиладиган жойларини тўлиқ тушуниб етиши;

иккинчидан, бўлажак математика ўқитувчиларида математика фанининг фанлараро, педагогик ва ахборот технологиялари интеграциялардан фойдаланишга етарли даражада эга бўлишлиги;

учинчидан, эса, бўлажак математика ўқититувчилари келгуси педагогик фаолиятларида фанлараро, педагогик ва ахборот технологиялари интеграциясини ҳамда, масалаларни ечишни оптимал усуллари очиб берувчи методик ишланмаларнинг яратиш каби вазифалар ижобий ҳал этилиши зарур ҳисобланади.

Бу вазифаларнинг ечими таълимнинг кредит-модуль тизимида ҳал этилади[4].

Мамлакатимиз олий таълими тизимида Болонья декларацияси тажрибасидан келиб чиқиб, Европанинг ECTS модели жорий қилинган.

Кредит-модуль тизими ўқув жараёни шаффофлигини, прагматизм (маъноси)ва талабага йўналтирилган таълимни ташкил этиш имкониятини бериб, унинг ОТМ ларда жорий этилиши мустақил таълим (талабани паст ўзлаштирган билим ва малакаси қайта ўзлаштириши, мустақил ишлаши)ва таълим жараёни технологиялашуви асосида таълим сифатини ошириши ҳамда рақобатбардош кадрларни тайёрлашга замин яратади.

Кредит-модуль тизими профессор-ўқитувчилар учун ОТМ хорижий мамлакатдаги ҳамкасблари билан ҳамкорлик қилиш (Academic staff exchange) имкониятини беради. Шунингдек, талабалар учун ОТМси тамонидан берилган дипломини бошқа бир давлат ОТМлари тамонидан тан олиниши, танлов фанларини иш берувчи тамонидан йўналтирилган таълим олиш, профессор-ўқитувчисини, касбий фаолияти учун зарур бўлган фанларни танлаш ҳамда кредит асосида талаба баҳо олиш имкониятини яратади.

Кредит-модуль тизимида қуйидаги иккита асосий масала ечим топади.

1-масала. Талабаларнинг мустақил ишлашини таъминлаш;

2-масала. Талабалар билиминини кредит ўлчови асосида баҳолаш.

Ананавий олий таълим тизими билан ҳозирги олий таълим тизимидаги кредит-модуль тизимининг фарқи қуйидаги жадвалда келтирилган (1-жадвалга қаранг).



Олдинги олий таълим тизими билан ҳозирги олий таълим тизимидаги кредит-модуль тизимининг фарқи

1-жадвал.

Олдинги олий таълим тизими		Олий таълим тизимидаги кредит-модуль тизими	
Талаба	Профессор-ўқитувчи	Талаба	Профессор-ўқитувчи
Талабани мутахассислига тегишли бўлмаган фанларни маърузаси тинглашга мажбурлайди. Бирувчиларни келажаги учун жавобгарлиги ОТМ га юклайди.	Олдиндан режалаштирилган фанларни барчасини эскирган ўқитиш методика асоси талабаларга ёздирди, талаба билми паст бўлса ҳам профессор-ўқитувчи баҳолашга мажбуриятини юклайди.	Талабани ўз устида ишлашга мажбурлайди, келажаги учун жавобгарлиги талабага юклайди.	Талаба кизиқиши асосида педагогик ва ахборот технологияларини интеграцияси асосида маърузаларни олиб боради ва кредит ўлчови асосида баҳоланади.

Ҳозирги кунда талаба фанларни чуқур ўзлаштириши учун ўқув режада берилган мустақил таълимига етарлича катта соат ажратилган. Талаба аудиторияда эгаллаган назарий ва амалий билимларини янада мустаҳкамлаш мақсадида ўз устида кўпроқ ишлаши зарур.

Талабалар ва ўқитувчиларнинг энг яқин ёрдамчисига айланган масофавий ўқитиш тизимлари, ўқиш циклини узилиб қолишдан сақловчи асосий восита бўлиб, унинг ажралмас қисми яъни, кредит-модуль тизимида мустақил таълимни тўғри ташкил этишдан иборат. Талабаларнинг мустақил ишлашига намуна келтирамиз.

Мисол. $\lim_{n \rightarrow \infty} \sum_{k=1}^n \frac{n+2}{k! + (k+1)! + (k+2)!}$ лимитни ҳисобланг.



Ечиш. Ййгиндининг n - ҳади қуйидагича ўзгартирамиз:

$$\frac{n+2}{n!+(n+1)!+(n+2)!} = \frac{n+2}{n!+n! \cdot (n+1)+n! \cdot (n+1) \cdot (n+2)} = \frac{n+2}{n! [1+(n+1)+(n+1) \cdot (n+2)]} =$$

$$= \frac{n+2}{n! \cdot (n+2)^2} = \frac{1}{n! \cdot (n+2)} \text{ тенг бўлади.}$$

$$\frac{3}{1!+2!+3!} + \frac{4}{2!+3!+4!} + \frac{5}{3!+4!+5!} + \dots + \frac{n+2}{n!+(n+1)!+(n+2)!} =$$

$$= \frac{1}{1! \cdot 3} + \frac{1}{2! \cdot 4} + \frac{1}{3! \cdot 5} + \dots + \frac{1}{(n-1)! \cdot (n+1)} + \frac{1}{n! \cdot (n+2)} = \frac{2}{1! \cdot 2 \cdot 3} + \frac{3}{2! \cdot 3 \cdot 4} + \frac{4}{3! \cdot 4 \cdot 5} + \dots +$$

$$+ \frac{n}{(n-1)! \cdot n \cdot (n+1)} + \frac{n+1}{n! \cdot (n+1) \cdot (n+2)} = \frac{3-1}{3!} + \frac{4-1}{4!} + \frac{5-1}{5!} + \dots + \frac{(n+1)-1}{(n+1)!} + \frac{(n+2)-1}{(n+2)!} =$$

$$= \left(\frac{1}{2!} - \frac{1}{3!} \right) + \left(\frac{1}{3!} - \frac{1}{4!} \right) + \left(\frac{1}{4!} - \frac{1}{5!} \right) + \dots + \left(\frac{1}{n!} - \frac{1}{(n+1)!} \right) + \left(\frac{1}{(n+1)!} - \frac{1}{(n+2)!} \right) = \frac{1}{2!} - \frac{1}{(n+2)!}$$

га тенг бўлади. Энди ушбу

$$\frac{3}{1!+2!+3!} + \frac{4}{2!+3!+4!} + \frac{5}{3!+4!+5!} + \dots + \frac{n+2}{n!+(n+1)!+(n+2)!} = \frac{1}{2!} - \frac{1}{(n+2)!}$$

тенгликни тўғрилигини математик индукция методи орқали

исботлаймиз. $n=1$ да $\frac{3}{1!+2!+3!} = \frac{1}{2!} - \frac{1}{3!}$, $n=2$ да

$$\frac{3}{1!+2!+3!} + \frac{4}{2!+3!+4!} = \frac{1}{2!} - \frac{1}{4!} \text{ ва ҳақоза } n=k \text{ да}$$

$$\frac{3}{1!+2!+3!} + \frac{4}{2!+3!+4!} + \frac{5}{3!+4!+5!} + \dots + \frac{k+2}{k!+(k+1)!+(k+2)!} = \frac{1}{2!} - \frac{1}{(k+2)!}$$

ўринли деб фараз қилиб, $n=k+1$ да

$$\frac{3}{1!+2!+3!} + \frac{4}{2!+3!+4!} + \frac{5}{3!+4!+5!} + \dots + \frac{k+2}{k!+(k+1)!+(k+2)!} + \frac{k+3}{(k+1)!+(k+2)!+(k+3)!} = \frac{1}{2!} - \frac{1}{(k+3)!}$$

тўғрилигини исботлаймиз.



$$\begin{aligned}
& \frac{3}{1!+2!+3!} + \frac{4}{2!+3!+4!} + \frac{5}{3!+4!+5!} + \dots + \\
& + \frac{k+2}{k!+(k+1)!+(k+2)!} + \frac{k+3}{(k+1)!+(k+2)!+(k+3)!} = \frac{1}{2!} \left[\frac{1}{(k+2)!} - \frac{k+3}{(k+1)!(1+(k+2))+(k+3)!} \right] = \\
& = \frac{1}{2!} \left[\frac{1}{(k+2)!} - \frac{k+3}{(k+3)[(k+1)!+(k+2)!]} \right] = \frac{1}{2!} \left[\frac{1}{(k+2)!} - \frac{1}{(k+1)!(k+3)} \right] = \frac{1}{2!} - \\
& - \frac{1}{(k+1)!} \left[\frac{1}{(k+2)} - \frac{1}{(k+3)} \right] = \frac{1}{2!} - \frac{1}{(k+1)!(k+2) \cdot (k+3)} = \frac{1}{2!} - \frac{1}{(k+3)!}
\end{aligned}$$

тенгликнинг тўғрилиги келиб чиқади.

$$\begin{aligned}
\lim_{n \rightarrow \infty} \sum_{k=1}^n \frac{n+2}{k!+(k+1)!+(k+2)!} &= \lim_{n \rightarrow \infty} \left(\frac{3}{1!+2!+3!} + \frac{4}{2!+3!+4!} + \frac{5}{3!+4!+5!} + \dots + \frac{n+2}{n!+(n+1)!+(n+2)!} \right) = \\
&= \lim_{n \rightarrow \infty} \left(\frac{1}{2!} - \frac{1}{(n+2)!} \right) = \frac{1}{2!} - \frac{1}{(\infty+2)!} = \frac{1}{2} \text{ тенг бўлади.}
\end{aligned}$$

Хулоса қилиб айтганда, лимитни ҳисоблашда йиғиндини ҳисоблаб ва йиғинди тўғрилигини кўрсатишда математик индукция методини интеграцияси амалда кўрсатилди. Талаба ушбу топшириқларни мустақил ўрганиш давомида масалаларни ечишда бир неча турли усулларни қўллай олиш кўникмасини ҳосил қилади.

Мустақил ечиш учун мисоллар.

1). $\frac{1^2}{1 \cdot 3} + \frac{2^2}{3 \cdot 5} + \frac{3^2}{5 \cdot 7} + \dots + \frac{n^2}{(2n-1)(2n+1)}$ йиғиндини ҳисобланг.

2). $1^4 + 2^4 + \dots + n^4$ йиғиндини ҳисобланг.

3). Muntazam $\triangle ABC$ berilgan. $\triangle ABC$ uchburchak ichi radiusi r

bo'lgan doira bilan to'ldirilgan. $\lim_{n \rightarrow \infty} \frac{S_n}{S}$ limitni hisoblang. S_n - doiralar yuzlarining yig'indisi. S - uchburchak yuzi.



4). $1 \cdot 2 + 2 \cdot 3 + \dots + (n-1) \cdot n$ yig'indini hisoblang.

5). $1 \cdot 2 + 2 \cdot 3 + \dots + (n-1) \cdot n = \frac{(n-1)n(n+1)}{3}$ isbotlang.

Фойданилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 05.10.2020 йилдаги ПФ- 6079-сон “РАҚАМЛИ ЎЗБЕКИСТОН — 2030” стратегиясини тасдиқлаш ва уни самарали амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида

2. Шкутина Л.А. Подготовка педагога профессионального обучения на основе интеграции педагогических и информационных технологий: дис. ... д-ра пед. наук. - Караганда, 2002. – 390 с.

3. Каюмова Н.А. Ўқитишнинг ахборот-таълим тизими шароити ва унда ахборот коммуникация технологиялари соҳаси ўқитувчиларини тайёрлаш. Монография. – Тошкент: “Фан ва технология”, 2015. – 192 б.

4. К.Каримов. Ўзбекистон Республикасида олий таълим /2022 /№2.

5. Sharipov E.O. Matematika o'qituvchisining “Shaxsga yo'naltirilgan” ta'lim texnologiyadan foydalanish bosqichlari // TDPU ilmiy axborotlari. – Toshkent, 2023. – 5-son. – B. 305-311



FMI jurnalining Aziz muxlislari! Ushbu «Masalalar bo'limi» jurnal tashkil qilingandan buyon faoliyat ko'rsatib keladi.

Bu yerda berilgan masalalarni yechib tahririyatga yuboring.

Xat mualliflarining ismi jurnal sahifalarida e'lon qilinadi.

Shuningdek, o'zingizga manzur bo'lgan va boshqalar uchun ham qiziqarli bo'lishi kutilgan misol va masalalarni to'plab, tanlab yuboring.

Ism va familiyangiz bilan jurnalda berib boramiz.

Bu ishga iqtidorli o'quvchilar bilan shug'ullanayotgan ustoz muallimlar va matematika to'garagi rahbarlarini jalb qilamiz.

Xat va masalalaringizni quyidagi manzilga yuboring:

Toshkent shahri, Bratislava ko'chasi 2 - uy.

O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy

tadqiqot instituti, FMI jurnali.

Agar yangi masalalar tuzib yuborsangiz unga alohida e'tibor

beriladi. Jurnalimiz haqidagi har qanday taklif va fikr

mulohazalaringizni mamnuniyat bilan qabul qilamiz.

Masalalar bo'limida qanday tipdagi masalalar bo'lishini

xohlaysiz? Xatlaringizni kutamiz!!!

OLIMPIADA MASALALARI

M.26. Agar $0 < |x| < \frac{\pi}{2}$ bo'lsa, $\cos x < \frac{\sin x}{x} < 1$ tengsizlikni isbotlang.

M.27. $|x| + \left| \frac{x+1}{3x-1} \right| = a$ tenglama a ning qanday qiymatida uchta yechimga ega?

M.28. Agar $\overline{abcde} - \overline{ebcda} = 69663$, $\overline{bcd} - \overline{dcb} = 792$ va $\overline{bc} - \overline{cb} = 72$ bo'lsa, u holda $\overline{abcde}$ ni toping.


M.29. Ushbu $4x^3 - 3x + 1 = 2y^2$ tenglama $x \leq 2023$ va $x, y \in \mathbb{N}$ shartlarni qanoatlantiradigan kamida 31 ta turli yechimga ega bo'lishini isbotlang.

M.30 Agar a, b, c - birdan katta haqiqiy sonlar bo'lsa, u holda



F.26. Gorizontol stol ustida M massali pona tinch holda turibdi. Ponaga yuqoridan m massali sharik tushadi (1-rasm.).

Agar sharik ponaga elastik urilib, gorizontol yo'nalishda qaytgani va ponani ilgari lanma harakat qilgani ma'lum bo'lsa, pona asosini α burchagi topilsin.




1-rasm

Barcha sirtlardagi ishqalanishlarni hisobga olmang.


F.27. Ishchi jism ν mol bir atomli ideal gaz bo'lgan issiqlik dvigatelida, pV -diagrammasi 2-rasmda tasvirlangan siklik jarayon bajariladi.

Bir sikldagi gazning bajargan ishi A ga, gazning 1 va 3 holatlarga mos keluvchi temperaturalar mos ravishda T_1 va T_2 ga teng. Siklning foydali ish koeffitsiyenti η ni toping.



2-rasm

F.28. $+9q$ va $-q$ zaryadlar A va B nuqtalarda joylashgan. AB chiziq bo'ylab ularga, $+q$ zaryadga ega bo'lgan m massali zarra yaqinlashmoqda (3-rasm). Shu zarra




3-rasm

uzoqdan B nuqtaga yetib kelishi uchu qanday tezlikka ega bo'lishi kerak?

F.29. 4-rasmda berilgan elektr zanjirining A va B nuqtalar orasida $U = 10 \text{ V}$ o'zgarmas kuchlanish ushlab turiladi. Rezistorlarning qarshiliklari mos ravishda

$$R_1 = R_5 = 20 \text{ Om}, R_2 = R_4 = 10 \text{ Om}, \text{ va } R_3 = 5 \text{ Om}.$$

R_1 rezistorda ajralib chiqqan P quvvatni toping.



4-rasm

F.30. Yorug'likning nuqtaviy manbai, focus masofasi F bo'lgan yupqa yig'uvchi linzaning



bosh optik o'qida joylashgan. Manbadan linzaning markazigacha bo'lgan masofa $2F$ ga teng. Linzani, markazini qo'zg'altirmasdan biror α burchakka bursak, manbaning tasviri qanday x masofaga siljiydi?

I.26. Yil va oy kiritilgandan so'ng taqvimni chiqarish dasturini tuzing.

I.27. Tekislikda 2 ta aylana berilgan. Ular kesishishi yoki kesishmasligini aniqlang.

I.28. O'zbekcha so'zlardan iborat A satr va K soni ($0 < K < 10$) berilgan. Satrni o'ngga K ta siklik siljitish orqali kodlovchi dastur tuzilsin. Ya'ni alfavitdagi harflar o'zidan K ta keyin turgan harf bilan almashtiriladi. Tinish belgilari va probel o'zgarishsiz qoldirsin.

I.29. Probek bilan ajratilgan o'zbekcha so'zlardan iborat A satr berilgan. Satrdagi eng qisqa so'z uzunligini aniqlovchi dastur tuzing.

I.30. Koordinatalar tekisligida butun son berilgan. Agar nuqta koordinata boshida yotsa, 0 chiqarilsin. Agar nuqta OX yoki OY o'qlarida joylashsa mos holda 1 va 2 chiqarilsin. Agar nuqta koordinata o'qida joylashmasa 3 chiqarilsin.

Yechimlar:

M.21. Bir nechta bir xil sharlar bor. Ularni stolga yoki kvadrat shaklida yoki teng yonli trapetsiya shaklida terib chiqish mumkin. Trapetsiyada har bir gorizontalk qatorda oldingisidan bitta ortiq shar bor. Trapetsiyaning yon tomonida kvadratning tomoniga qaraganda 2 ta kam shar joylashganligi, trapetsiyaning katta asosida esa uning yon tomoniga qaraganda ikki marta ko'p shar joylashganligi ma'lum bo'ldi. Sharlarning sonini aniqlang.

Yechim

n^2 -sharlar soni; m -trapetsiyaning kichik asosidagi sharlar soni; $m + n$ - trapetsiyaning katta asosidagi sharlar soni; $p + 1$ - trapetsiyaning gorizontalk qatorlarining soni. Sistema tuzib, uni yechamiz:



$$\begin{aligned}
 & \left\{ \begin{array}{l} (p+1)+2=n \\ m+p=2(p+1) \\ n^2=\frac{m+(m+p)}{2}(p+1) \end{array} \right. \Leftrightarrow \left\{ \begin{array}{l} n=p+3 \\ m=p+2 \\ (p+3)^2=\frac{2(p+2)+p}{2}(p+1) \end{array} \right. \Leftrightarrow \\
 & \left\{ \begin{array}{l} n=p+3 \\ m=p+2 \\ p^2-5p-14=0 \end{array} \right. \Leftrightarrow \left\{ \begin{array}{l} n=p+3 \\ m=p+2 \\ p=7 \end{array} \right. \Leftrightarrow \left\{ \begin{array}{l} n=10 \\ m=9 \\ p=7 \end{array} \right.
 \end{aligned}$$

Javob: $n^2 = 100$

M.22. Dastlab doskaga 1 soni yozilgan edi. Doskada yozilgan sonni 3 ga ko'paytirish yoki undagi raqamlar o'rnini almashtirish mumkin. Natijada 999 sonini hosil qilish mumkinmi?

Yechim

Ushbu masalani oxiridan yechish qulay. Aytaylik, biz masala shartidagi amallar yordamida 999 sonini hosil qilaylik. Bu sondagi raqamlarning o'rnini almashtirishdan foyda yo'q. Shuning uchun biz 999 ni faqat 3 ga 333 ni ko'paytirish yordamida hosil qilishimiz mumkin. 333 sonida ham xuddi shunday raqamlarning o'rnini almashtirishdan xech qanday ma'no yo'q. Shuning uchun biz 333 ni faqat 3 ga 111 ni ko'paytirish bilangina hosil qilishimiz mumkin. Bu sonida ham yana raqamlarning o'rnini o'zgartirishning ma'nosi yo'q. Shuning uchun biz uni faqat 3 ga 37 ni ko'paytirish bilan hosil qilishimiz mumkin. 37 sonida raqamlarning o'rnini o'zgartirishimiz mumkin. Natijada 73 sonini hosil bo'ladi. Biroq, 37 soni ham, 73 ham uchga bo'linmagani uchun bu sonlarni uchga ko'paytirish yordamida hosil qilib bo'lmaydi. Demak, 1 sonidan 999 ni hosil qilish mumkin emas.

Javob: Hosil qilib bo'lmaydi.



M.23. a, b, c va d natural sonlar uchun $2023^a + 2023^b = 2023^c + 2023^d$ tenglik o'rinli bo'lsa, $a^{2023} + b^{2023} = c^{2023} + d^{2023}$ bo'lishini isbotlang.

Yechim

Aytaylik, $a \geq b$ va $c \geq d$ bo'lib, $a > c$ bo'lsin. U holda

$2023^a + 2023^b > 2023^a > 2023^{a-1} + 2023^{a-1} \geq 2023^c + 2023^d$ ziddiyatga kelamiz. Demak, $a = c$ ekan. Bundan esa $2023^b = 2023^d$ yoki $b = d$ kelib chiqadi. Endi $a^{2023} + b^{2023} = c^{2023} + d^{2023}$ bo'lishi ravshan

M.24. Ushbu $q^2 + p^3 = 80 + 100q$ tenglamani tub sonlarda yeching.

Yechim

Tenglamani $p^3 + (q - 50)^2 = 2580$ ko'rinishida yozib olish mumkin. Bunda esa $p^3 \leq 2580$ yoki $p < 14$ ekanligi kelib chiqadi. 14 dan kichik tub sonlar esa 2, 3, 5, 7, 11 va 13 bo'lib, ushbu sonlarning masala shartini qanoatlantirmasligini qo'yib ko'rib tekshirish mumkin.

Javob: Yechimi yo'q.

M.25. Agar $a > 1$ bo'lsa, u holda $\log_{\sqrt{a}}(a+1) + \log_{(a+1)}\sqrt{a} > \sqrt{6}$ tengsizlikni isbotlang.

Yechim

$\log_{\sqrt{a}}(a+1) \cdot \log_{(a+1)}\sqrt{a} = 1$ bo'lishini ko'rish qiyin emas. Endi $x = \log_{\sqrt{a}}(a+1)$ belgilash kiritsak, $x = \log_{\sqrt{a}}(a+1) > \log_{\sqrt{a}}a = 2$ ga ko'ra

$x + \frac{1}{x}$ ifodamiz $x > 2$ da $2 + \frac{1}{2} = 2,5$ dan katta bo'lishini ko'rish qiyin emas. U esa o'z navbatida $\sqrt{6}$ dan ham katta bo'ladi.

F.21. Ip o'ralgan g'altak gorizontol stolda sirpanishsiz aylana oladi. G'altak ipining uchini u tezlik bilan gorizontol tortilganda




g'altakning markaziy o'qi va A nuqtaning tezligi hamda tezlanishini aniqlang. G'altakning tashqi radiusi- R , ichki radiusi- r (1-rasm).

Yechim

G'altakning bu harakatini bir-biriga bog'liq bo'lmagan ikki harakatning yig'indisi sifatida qarash mumkin.

1) Ko'chirma ilgarilanma harakat bo'lib, g'altakning barcha nuqtalari bir xil v_o tezlik bilan harakatlanadi.



2) Nisbiy harakat bo'lib, g'altak markaziga nisbatan ω_o burchak tezlik bilan harakatlanadi. Natijaviy u tezlik ikki tezliklarning geometrik yig'indisidan iborat bo'ladi: $\vec{u} = \vec{v}_o + \vec{v}$ (1)

Bu yerda $v = \omega_o r$ g'altak nuqtasining aylanma nisbiy harakatidagi chiziqli tezligi. Qaralayotgan momentda g'altakning C nuqtasi stolga nisbatan harakatlanmaydi. Uning absolyut tezligi $u_c = 0$. Bu nuqtaning radiusi R , nisbiy tezligi esa chap tomonga yo'nalgan bo'lib, o'ng tomonga yo'nalgan ko'chirma tezlikka teng bo'ladi:

$$\omega_o R = v_o, \text{ va } \omega_o = v_o / R \quad (2)$$

(1) va (2) larga asosan B hamda A nuqtalarning nisbiy tezliklari yo'nalishlarini e'tiborga olgan holda, so'ralgan tezliklar uchun

$$u = v_o - \frac{v_o}{R} r \Rightarrow v_o = \frac{R}{R-r} u$$

$$u_A = v_o + \frac{v_o}{R} r \Rightarrow u_A = 2v_o = \frac{2R}{R-r} u$$

natijalarni olamiz. G'altakning barcha nuqtalari ko'chirma harakatini ilgarilanma harakat deb qarab, biror nuqtasining tezlanishini aniqlash uchun $\vec{a}_{abs} = \vec{a}_{nisb} + \vec{a}_{ko'ch}$ formuladan foydalanishimiz mumkin. G'altakning ko'chirma harakati tekis harakat bo'lgani

uchun $\vec{a}_{ko'ch} = 0$,



$$a = a_{nib} = \omega_o^2 R = \frac{v_o^2}{R} = \frac{Ru^2}{(R-r)^2}$$

bu yerda $\vec{a}_{nib}$ – g'altak nuqtalarining normal tezlanishi.

Javob: $a = \frac{Ru^2}{(R-r)^2}$.

F.22 Asos yuzi $S=100 \text{ cm}^2$ bo'lgan silindrda $T=290^\circ\text{K}$ temperaturali havo qamalgan. Asosidan $h=0,6\text{m}$ balandlikdagi yengil porshenga $m=100\text{kg}$ yuk qo'yilgan. Agar gazning temperaturasi $\Delta T=50\text{K}$ ga ortguncha qizdirilsa, bu gaz qancha ish bajaradi. Atmosfera bosimi $p_a=10^5 \text{ Pa}$.

Yechish:

Gaz qizdirilganda kengayish hisobiga yuk og'irligi va tashqi bosimga qarshi ish bajaradi. Qizdirilish yetarlicha sekin bo'lsa, bu jarayonni izobarik jarayon deb qarash mumkin.

$$A = \frac{m}{\mu} R \Delta T \text{ yoki } A = p(V_2 - V_1) = p \Delta V \quad (1)$$

Porshen muvozanatda bo'lganda vaqtning ixtiyoriy momentida porshenga bo'lgan bosim tashqi bosim va yukning bosimi bilan tenglashadi:

$$p = p_a + mg/S \quad (2)$$

Izobarik jarayon uchun:

$$\frac{V_1}{T_1} = \frac{V_2}{T_2} \text{ yoki } \frac{hS}{T_1} = \frac{V_2}{T_2} \quad (3)$$


(1) - (3) larni birgalikda yechib,

$$A = \left(p_a + \frac{mg}{S} \right) \frac{T_2 - T_1}{T_1} hS = 207 \text{ J} \text{ javobni olamiz.}$$

Javob: $A = 207 \text{ J}$.



F.23. Uzunligi $L=1\text{m}$ bo'lgan vaznsiz dielektrik ipning ikki uchiga radiuslari $R=2\text{cm}$ va $r=1\text{cm}$ bo'lgan alyumin sharlar biriktirilgan bo'lib, ular 2-rasmdagidek izolyatsiyalangan gorizontall stolda turilibdi. Agar katta sharchaning har $Z=10^9$



2-rasm

ta atomidan bittadan elektron kichik sharchaga o'tkazilsa, ipni tarang holiga kelishi uchun qanday minimal kuch qo'yish kerak? Alyuminning zichligi va atom massasi mos holda $\rho=2,7 \cdot 10^3 \text{ kg/m}^3$, $A=27$, elektronning zaryadi $e=1,6 \cdot 10^{-19} \text{ C}$.

Yechish:

Masala sharti bo'yicha katta shardan $n=N/Z$ dona elektron kichik sharga o'tkaziladi. Natijada sharlar mos holda $+ne$ va $-ne$ miqdorda zaryadlanadi. Sharlar orasida F_k Kulon tortishish kuchi yuzaga kelib, ular bir-birlari tomon massasiga bog'liq tezlanish bilan harakatlanib boshlaydi. Kichik sharning massasi kichikligi tufayli u kattaroq tezlanish bilan katta shar tomonga harakatlanadi. Shuning uchun biz kichik sharga rasmda ko'rsatilgandek F kuch qo'yamiz. Bu kuch kichik sharga shunday a tezlanish berishi, natijada ikkala sharning bir-biriga nisbatan tezlanishi nolga teng bo'lishi kerak. Demak kichik sharcha uchun $F - F_k = ma$, (1) katta sharcha uchun

$$F_k = Ma \quad (2)$$

tenglamalar o'rinli bo'ladi. K'orilayotgan holda 'irlik kuchi ta'siri juda kichikligi uchun u e'tiborga olinmaydi.

$$F_k = \frac{q_1 q_2}{4\pi\epsilon_0 L^2}, |q_1| = |q_2| = |ne| \Rightarrow F_k = \frac{n^2 e^2}{4\pi\epsilon_0 L^2}. \quad (3)$$

$$M = \rho V_1 = \frac{4}{3}\pi R^3 \rho; \quad \text{va} \quad m = \rho V_2 = \frac{4}{3}\pi r^3 \rho; \quad (4)$$



$$N = \frac{M}{A} N_A \quad (5)$$

Bu yerda N_A - Avagadro soni.


(1) - (5) tenglamalarni F ga nisbatan yechib:

$$F = \frac{4\pi}{9\varepsilon_0} \left(\frac{e\rho N}{AZL} \right)^2 (R^3 + r^3) R^2 \approx 735 N$$

natjani olamiz. Ip taranglanishi uchun kichik sharga $F_{min} > F$ kuch ta'sir etishi kerak.

Javob: $F_{min} > 735 N$.

F.24. Noma'lum sig'imli kondensator, induktivligi L bo'lgan g'altak va R qarshilikli rezistor kuchlanishi $\varepsilon = \varepsilon_0 \cos \omega t$ bo'lgan o'zgaruvchan tok manbaga ketma-ket ulangan (3-rasm).



Zanjirdagi tok kuchi $I = (\varepsilon_0/R) \cos \omega t$ bo'lsa, kondensator qoplamalari orasidagi U_0 kuchlanishni aniqlang.

Yechish:

Tok kuchi va kuchlanish bir xil tebrangani uchun C va L larning hissalarini kompensatsiyalashadi va

$$\frac{1}{\omega C} = \omega L \quad (1)$$

tenglik o'rinli bo'ladi. Tok kuchining amplituda qiymati $I = \varepsilon_0/R$, va $U_C = q/C$, $dq/dt = I$ munosabatlardan

$$U_C = \varepsilon_0 \sin \omega t / (R\omega C) \quad (2)$$

ni topamiz. Shuning uchun kondensator qoplamalari orasidagi kuchlanish amplitudasi (1) dan C ni topib va (2) ga qo'yib,

$$U_C = \varepsilon_0 \omega L / R$$

javobga ega bo'lamiz.



Javob: $U_c = \varepsilon_o \omega L/R$.

F.25. Zarrachaning yashash davri $t_0 = 2,5 \cdot 10^{-8}$ s. U paydo bo'lganidan to parchalanguncha 500m yo'l bosib o'tgan bo'lsa, uning tezligi yorug'likning vakuumdagi tezligidan necha foiz kam?

Yechish:

Tezliklar farqi $\Delta v = c - v$. Foizlarda esa

$$\frac{\Delta v}{v} 100\% = \frac{c-v}{v} 100\% = \left(\frac{c}{v} - 1 \right) 100\%.$$

$$t = \frac{t_0}{\sqrt{1 - \frac{v^2}{c^2}}} \text{ formulaga } t = \frac{S}{v} \text{ ni qo'yamiz: } \frac{S}{v} = \frac{t_0}{\sqrt{1 - \frac{v^2}{c^2}}}.$$

Bundan

$$v = \frac{cS}{\sqrt{c^2 t_0^2 + S^2}}$$

Demak,

$$\frac{\Delta v}{v} 100\% = \left(\sqrt{\left(\frac{ct_0}{S} \right)^2 + 1} - 1 \right) 100\% = 0,01\%.$$

Javob:

$$\frac{\Delta v}{v} 100\% = 0,01\%.$$

I.21. Shaxmat doskasining x,y koordinatalari berilgan (1-8 oraliqda yotuvchi butun sonlar). Doskaning chap pastki katakchasi (1,1) qoraligini hisobga olib, x,y koordinatadagi katakchani rangini aniqlang.



I.22. Yil berilgan (musbat butun son). Berilgan yilda nechta kun borligini aniqlovchi dastur tuzing. “Kabisa yili”da 366 kun bor, kabisa bo‘lmagan yilda 365 kun bor. “Kabisa yili” deb 4 ga karrali yillarga aytiladi. Lekin 100 ga karrali yillar Ichida faqat 400 ga karrali bo‘lganlari kabisa yili hisoblanadi

I.23. a , b , c butun sonlar berilgan. Tomonlari a va b bo‘lgan to‘g‘ri to‘rtburchakka tomoni c bo‘lgan kvadrat eng ko‘p joylashtirilsin. To‘g‘ri to‘rtburchakka eng ko‘p joylashgan kvadratlar soni va joylashmay qolgan qismi yuzasini aniqlovchi dastur tuzing.

I.24. A va B musbat butun sonlar berilgan ($A < B$). A va B sonlari orasidagi barcha butun sonlarni chiqaruvchi dastur tuzing. Bunda har bir son o‘zining qiymaticha marta chiqarilsin.

I.25. N natural soni va N ta butun sondan iborat to‘plam berilgan ($N > 3$). To‘plamdagi eng katta 3 ta qiymatni aniqlovchi dastur tuzing.



OLIMPIADA -2023

64-Xalqaro matematika olimpiadasi (IMO) 2023-yil 2-13-iyul kunlari Yaponiyaning Chibo shahrida bo'lib o'tadi.

O'zbekiston terma jamoasining Xalqaro matematika olimpiadasiga tayyorgarlik jarayonlari bo'lib o'tmoqda.

64 – Xalqaro matematika olimpiadasi (IMO)da qatnashuvchi O'zbekiston terma jamoasi a'zolarining o'quv tayyorlov jarayonlari bo'lib o'tmoqda.

Toshkent shahridagi Prezident maktabida tashkil etilgan mazkur o'quv jarayonlariga Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan xorijiy mutaxassis Grigoriy Chelnokov taklif qilingan.

Grigoriy Chelnokov matematika fanlari nomzodi, Moskva Iqtisodiyot Oliy maktabi Matematika fakulteti o'qituvchisi bo'lib, 2000-yildan buyon turli mamlakatlarning terma jamoa a'zolarini xalqaro matematika olimpiadasi (IMO)ga tayyorlab keladi.

64-Xalqaro matematika olimpiadasi (IMO) joriy yilning 2-13-iyul kunlari Yaponiyaning Chibo shahrida bo'lib o'tadi.

-O'zbekiston terma jamoasi ilk bor Bolqon Matematika Olimpiadasida ishtirok etadi

– Joriy yilning 8-13 may kunlari Turkiyaning Antaliya shahrida 40-Bolqon Matematika olimpiadasi o'tkaziladi. Xalqaro olimpiadada Albaniya, Aljir, Ozarbayjon, Bosniya va Gersogoviniya, Chernogoriya, Buyuk Britaniya, Bolgariya, Kipr, Fransiya, Gruzsiya, Gretsiya, Italiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, O'zbekiston, Moldova, Shimoliy Makedoniya, Saudiya Arabistoni, Serbiya, Turkmaniston, Turkiya mamlakatlaridan jami 132 nafar iqtidorli yoshlar ishtirok etadi.

– O'zbekiston terma jamoasi mazkur xalqaro olimpiadada birinchi marta ishtirok etmoqda. Olimpiada bir bosqichda tashkil qilinib, Ishtirokchilarga xalqaro olimpiadalar metodologiyasi asosida yaratilgan kombinatorika, sonlar nazariyasi, geometriya va algebra yo'nalishlarida



4 ta masala taqdim qilinadi. Topshiriqlarni bajarish uchun 4,5 soat vaqt ajratiladi, har bir masala 10 balldan baholanadi.

– **Terma jamoamiz a'zolari bilan tanishish:**

– Raxmatov Anvarbek – Buxoro viloyati, Qorako'l tumani, PTMA IM 11-sinf o'quvchisi;

– Axtamov Ozodbek – Toshkent shahar, Al-Xorazmiy maktabi 9-sinf o'quvchisi;

– Sadulloyev Anvarbek – Buxoro viloyati, Peshku tumani, 18 -maktab, 11-sinf o'quvchisi;

– Xalilov Suxrob – Navoiy shahar, 1-son PTMA IM 11-sinf o'quvchisi;

– Maksudov Behzod – Xorazm viloyati, Urganch shahar, 6-IMI 11-sinf o'quvchisi;

– G'afforov Rasulbek – Toshkent shahar, Yakkasaroy tumani, 144-maktab 8-sinf o'quvchisi;

Terma jamoamiz a'zolariga omad va zafarlar tilab qolamiz!

XUSHXABAR

– Olti nafar O'zbekistonlik ishtirok etgan Bolqon Matematika Olimpiadasida 4 ta bronza medali qo'lga kiritildi.

- Matematik paketlar matematik ifodalarni yaratish, o'zgartirish, tahlil qilish va hisoblash imkoniyatini beradi. Ular matematik ifodalarni oddiy va tushunarli ko'rinishda ko'rsatadi, ularni matematik notatsiyasi bilan yozishga ruxsat beradi.

- Matematik paketlar matematik funksiyalar, tenglamalar sistemasi, differensial va integral hisob, matritsalar, vektorlar, to'plamlar, algebralar, geometriyalar, topologiyalar, statistika, kombinatorika, kriptografiya va boshqa matematik sohalarini o'rganish va yechish imkoniyatini beradi. Ular matematik nazariyalar va aksiomalar asosida ishlaydi hamda ularning natijalarini isbotlaydi.

- Matematik paketlar matematik ob'ektlarning grafikasini chizish, animatsiya yaratish, interaktiv oynalar ishlatish, matematik eksperimentlar o'tkazish imkoniyatini beradi. Ular matematik ob'ektlarni ko'z bilan ko'rish va tushunishga yordam beradi.

- Matematik paketlar matematik masalalar va nazariyalar bilan bog'liq ma'lumotlar va manbalar bilan ishlash imkoniyatini beradi. Ular matematik ma'lumotlar bazalarini, elektron kutubxonalarni, internet resurslarini va boshqa axborot vositalarini qo'llab-quvvatlaydi.



Matematik paketlardan o'quv jarayonida foydalanish matematik va texnik ta'limning fundamentalligini oshirishni ta'minlaydi. Talabalarning nazariy bilimlarini amaliyotga qo'llash malakalarini oshiradi. Matematik paketlar matematika fanining go'zalligini, chuqurligini va zamonaviyligini ko'rsatadi.

Matematik paketlarga misol sifatida Maple, Matlab, Mathematica, Derive, Geo Gebra va boshqalar keltirilishi mumkin. Ular har biri o'ziga xos imkoniyatlar va xususiyatlarga ega. Matematik paketlarni tanlashda, ularning maqsadga mosligi, foydalanish osonligi, narxining qulayligi va boshqa omillar hisobga olinadi. Matematik paketlarni o'rganish va ishlatish uchun ularning rasmiy saytlaridan, elektron qo'llanmalardan, video darsliklardan va boshqa manbalardan foydalanish mumkin.

Biz eng ko'p qo'llaniladigan matematik paketlardan biri Maple matematik paketi yordamida bir nechta misollarni yechamiz va ularni tahlil qilamiz.

Maple paketi matematik ifodalar bilan ishlash uchun keng imkoniyatlar beruvchi dasturiy vositadir. Ushbu paketda funksiyalar, matritsalar, algebraik ifodalar, trigonometrik ifodalar, integral va differensial hisoblar, grafiklar, animatsiyalar va boshqa ko'plab matematik ob'ektlar bilan ishlash mumkin. Maple paketi Windows, Linux, Mac OS X kabi operatsion tizimlarda ishlaydi. Maple matematik paketi matematikani o'rganish, o'qitish, qo'llash va rivojlantirish uchun keng qamrovli hamda kuchli vosita hisoblanadi. U matematik ifodalar, tenglamalar, tengsizliklar formulasini yozish va ularni soddalashtirish, yechish, boshqa ko'rinishga o'tkazish, tekshirish, tahlil qilish, grafikasini chizish, animatsiya qilish, interaktiv qilish va boshqa ko'plab amallarni bajarish imkonini beradi [1]. Maple matematik paketi yordamida siz matematik masalalar, misollar, mashqlar, testlar, loyihalar, eksperimentlar, tajribalar, o'yinlar, tanlovlar, muammolar, olimpiadalar va boshqa turdagi matematik faoliyatlar bilan shug'ullanishingiz mumkin [2]. Endi misollarning tahlili bilan tanishamiz.



Matematik analiz fanining muhim bo'limlaridan biri karrali integrallar hisoblanadi. Karrali integral tekislikning ma'lum sohasida uch o'lchovli yoki n o'lchovli fazoda berilgan funksiyalardan olingan integral. Bu yerda talabalarda shunday muamo yuzaga keladiki, qandaydir D sohada aniqlangan ikki o'zgaruvchili funktsiyaning grafigini tassavur qilish va hosil bo'lgan jismni doskada ifodalash bir muncha qiyinchiliklar tug'diradi. Bunday hollarda, ayniqsa, uch o'lchovli fazoda jismni tasvirlash uchun matematik paketlardan foydalanish samarali hisoblanadi [3]. Hozirgi kunda eng zamonaviy paketlardan biri MAPLE shu muammolarni hal qilishda muqobil yechim hisoblanadi. Dastlab, biz ikki karrali integralga ta'rif beramiz va ikki karrali integralni MAPLE matematik paketi yordamida yechishning bir nechta usullarini keltirib, ularga doir bir nechta misollar yechimlarini ko'rsatamiz.

Ta'rif: *Oxy* tekislikning yopiq D sohasida $z = f(x, y)$ funktsiya aniqlangan va bu uzluksiz bo'lsin. D sohani ixtiyoriy ravishda umumiy ichki nuqtalarga ega bo'lmagan va yuzalari ΔS_i ga teng bo'lgan n ta D_i ($i = 1, n$) elementar sohalarga bo'lamiz. Har bir D_i sohada ixtiyoriy $P(x_i, y_i)$ nuqtani tanlaymiz, $z = f(x, y)$ funktsiyaning bu nuqtadagi qiymati $f(x_i, y_i)$ ni hisoblab, uni ΔS_i ga ko'paytiramiz va barcha bunday ko'paytmalarning yig'indisini tuzamiz: $I_n = \sum_{i=1}^n f(x_i, y_i) \Delta S_i$ yig'indiga $f(x, y)$ funktsiyaning D sohadagi integral yig'indisi deyiladi. [4]

D_i soha chegaraviy nuqtalari orasidagi masofalarning eng kattasiga shu yuzaning diametri deyiladi va d_i bilan belgilanadi, bunda $n \rightarrow \infty$ da $d_i \rightarrow 0$. Agar (1.1) integral yig'indining $\max d_i \rightarrow 0$ dagi chekli limiti D sohani bo'laklarga bo'lish usuliga va bu bo'laklarda $P(x_i, y_i)$ nuqtani tanlash usuliga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'lsa, bu limitga $f(x, y)$ funktsiyadan D soha bo'yicha olingan ikki karrali integral deyiladi va

$\iint_D f(x, y) dS$ bilan belgilanadi:

$$\iint_D f(x, y) dS = \lim_{\max d_i \rightarrow 0} \sum_{i=1}^n f(x_i, y_i) \Delta S, \quad \text{yoki,}$$

$$\iint_D f(x, y) dx dy = \lim_{\max d_i \rightarrow 0} \sum_{i=1}^n f(x_i, y_i) \Delta x_i \cdot y_i \quad \text{bo'ladi. [5]}$$

1. Ikki karrali integralni `int()` buyrug'i yordamida hisoblash. Bu buyruq quyidagi tartibda yozilsa, bizga ikki karrali integralni hisoblab beradi.

`Int` funksiyasi ichiga funksiya va uning o'zgarish oraliqlarini kiritamiz va uni yana shunga tenglab natijani olamiz, faqat bunda integralni hisoblash jarayoni ko'rinmaydi. Buni ko'rish uchun "simplify" buyrug'idan foydalanamiz va natijalarni olamiz.

2. Ikki karrali integralni Student paketidagi `Doubleint()` funksiyasi yordamida hisoblash. `Doubleint()` funksiyasi yordamida ikki karrali integralni hisoblash uchun `with (student): Doubleint` buyrug'i ichiga funksiya va o'zgaruvchilarning o'zgarish oralig'ini kiritib natija olamiz.

3. Ikki karrali integralni Student [Multivariate Calculus] paketining `MultiInt()` funksiyasi yordamida hisoblash. Student [Multivariate Calculus] paketidagi `MultiInt()` funksiyasi yordamida ikki karrali integral quydagicha hisoblanadi. `MultiInt()` funksiyasi ichiga ikki karrali integral ostidagi funksiya, o'zgaruvchilarning o'zgarish oralig'i va oxirida `outpat=steps` deb natijani olamiz.

4. Ikki karrali integralni Vector Calculus paketining `int()` funksiyasi yordamida hisoblash. Vector Calculus paketining `int()` funksiyasi bilan hisoblashda `with (Vector Calculus)` va `int` buyrug'idan foydalanamiz. `Int()` funksiyasi ichiga ikki karrali integral ostidagi funksiyani va Region funksiya ichiga o'zgarish oraliqlarini kiritib natijani olamiz.

Endi shularga oid misol ko'rib chiqamiz.

Misol: $\iint_D (xy - 4x^3y^3) dx dy$, $D: x=1, y=x^3, y=-\sqrt{x}$ ni hisoblang.

$$> \text{plot3d}\left(x \cdot y - 4 \cdot x^3 \cdot y^3, x=1 \dots 2, y=\frac{\pi}{2} \dots \pi, \text{axes} = \text{frame}\right)$$

Ikki karrali integralni int() buyrug'i yordamida hisoblash.

$$> \text{Int}\left(\text{Int}\left((x \cdot y - 4 \cdot x^3 \cdot y^3)', y = -x^{\frac{1}{2}} \dots x^2\right), x = 0 \dots 1\right) =$$

$$= \text{int}\left(\text{int}\left(x \cdot y - 4 \cdot x^3 \cdot y^3, y = -x^{\frac{1}{2}} \dots x^2\right), x = 0 \dots 1\right);$$

$$\int_0^1 \int_{-\sqrt{x}}^{x^2} (-4x^3y^3 + xy) dy dx = 0$$

$$\text{Int}\left((x \cdot y - 4 \cdot x^3 \cdot y^3)', y = -x^{\frac{1}{2}} \dots x^2\right) = \text{int}\left(x \cdot y - 4x^3 \cdot y^3, y = -x^{\frac{1}{2}} \dots x^2\right);$$

$$\int_{-\sqrt{x}}^{x^2} (-4x^3y^3 + xy) dy = -x^3(x^8 - x^2) + \frac{1}{2}x(x^4 - x) \quad \text{simplify(rhs(%));}$$

$$-x^{11} + \frac{3}{2}x^5 - \frac{1}{2}x^2 \quad \text{Int}(\%, x = 0 \dots 1) = \text{int}(\%, x = 0 \dots 1);$$

$$\int_0^1 \left(-x^{11} + \frac{3}{2}x^5 - \frac{1}{2}x^2\right) dx = 0$$

Ikki karrali integralni Student paketidagi Doubleint() funksiyasi yordamida hisoblash.

$$> \text{with(student):Doubleint}\left((x \cdot y - 4x^3 \cdot y^3), y = -x^{\frac{1}{2}} \dots x^2, x = 0 \dots 1\right): \% = \text{value}(\%);$$

$$\int_0^1 \int_{-\sqrt{x}}^{x^2} (-4x^3y^3 + xy) dy dx = 0$$



Ikki karrali integralni Student [Multivariate Calculus] paketining MultiInt() funksiyasi yordamida hisoblash.

with(Student[Multi vari ateCalculus]);

$$\text{MultiInt}\left(x \cdot y - 4x^3 \cdot y^3, y = -x^{\frac{1}{2}} \dots x^2, x = 0 \dots 1, \text{output} = \text{steps}\right);$$

[*`, ApproximateInt, ApproximateIntTutor, AreParallel, AreSkew, CenterOfMass, ChangeOfVariables, Contains, CroossSection, CroossSectionTutor, Del, DirectionDerivative, DirectionDerivativeTutor, Distance, Equal, FunctionAverage, GetDimension, GetDirection, GetIntersection, GetNormal, GetPlot, GetPoint, Line, MultiInt, Nable, Plane, Revert, SecondDerivativeTest, SurfaceArea, TaylorApproximation, TaylorApproximationTutor*]

$$\begin{aligned} \int_0^1 \int_{-\sqrt{x}}^{x^2} (-4x^3 y^3 + xy) dy dx &= \int_0^1 \left(\left(-y^4 x^3 + \frac{1}{2} y^2 x \right) \Big|_{y=-\sqrt{x} \dots x^2} \right) dx = \\ &= \int_0^1 \left(-x^3 (x^8 - x^2) + \frac{x(x^4 - x)}{2} \right) dx = \left(-\frac{1}{12} x^{12} + \frac{1}{4} x^6 - \frac{1}{6} x^3 \right) \Big|_{x=0 \dots 1} \end{aligned}$$

Ikki karrali integralni Vector Calculus paketining int() funksiyasi yordamida hisoblash.

with(VectorCalculus):int $\left(x \cdot y - 4x^3 y^3, [x, y] = \text{Region}\left(0 \dots 1, -x^{\frac{1}{2}} \dots x^2\right)\right);$
Demak, yuqoridagi 4 ta usulda bizga berilgan

$$\iint_D (xy - 4x^3 y^3) dx dy, \quad D: x = 1, y = x^3, y = -\sqrt{x} \text{ ning}$$

qiymati nolga teng bo'ldi. Shuni endi biz bilgan matematik usul bilan yechib ko'ramiz.

$$I = \iint_D (xy - 4x^3y^3) dx dy, \quad D: x=1, y=x^3, y=-\sqrt{x}$$

Birinchi navbatda bizga berilgan D sohani chizib olamiz.

$$\text{plot}\left(\left[x^3, -x^{\frac{1}{2}}\right], x=0\dots 1\right); y=x^3, \quad y=-\sqrt{x}$$

Demak, D soha quydagicha ekan:

$$D = \{(x, y) : 0 \leq x \leq 1, -\sqrt{x} \leq y \leq x^3\}$$

Shundan foydalanib, quydagi ikki karrali integralni tuzamiz va uni hisoblaymiz:

$$\begin{aligned} I &= \iint_D (xy - 4x^3y^3) dx dy = \int_0^1 dx \int_{-\sqrt{x}}^{x^3} (xy - 4x^3y^3) dy = \int_0^1 \left(x \cdot \frac{y^2}{2} - x^3 y^3 \right)_{-\sqrt{x}}^{x^3} dx = \\ &= \int_0^1 \left(\frac{x^7}{2} - x^{15} - \frac{x^2}{2} + x^5 \right) dx = \left(\frac{x^8}{16} - \frac{x^{16}}{16} - \frac{x^3}{6} + \frac{x^6}{6} \right)_0^1 = 0 \end{aligned}$$

Demak, xulosa qilsak, yuqorida keltirilgan ikki karrali integralni hisoblash bo'yicha bir nechta usullarni ko'rib o'tdik. Bu usullar talabalarga ikki karrali integral ostidagi funksiyaning grafigini tasavvur qilish imkoniyatini taqdim etadi. Bugungi kunda matematik paketlarning o'quv jarayonidagi o'rni va roli ancha sezilarli va samaraliroqdir. O'quvchi-talabalarda matematik paketlardan foydalanish ko'nikmalari va malakalarini shakllantirish matematika va informatika fanlarining asosiy komponentlaridan biridir. Murakkab matematik masalalarni



yechishni osonlashtirish orqali matematikani o'rganish asabiy siqilishning oldini oladi hamda uni qiziqarli va juda oddiy jarayonga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Eshtemirov S., Aminov I.B., Nomozov F. Maple muhitida ishlash asoslari. Uslubiy qo'llanma. – SamDU, Samarqand, 2009.
2. Дяконов В.П. Maple 6: учебный курс. СПб.: Питер, 2001
3. Дяконов В.П. Математическая система Maple V R3/R4/R5. – М.: Солон, 1998.
4. Azlarov T., Mansurov H. Matematik analiz. Toshkent. "O'qituvchi" 1994.
5. Gaziyeu A., Isroilov I., Yaxshiboyev M. Matematik analizdan misol masalalar. Toshkent. – 2021.



DINAMIK SISTEMALARNING INTEGRATSIYASI VA O'ZGARUVCHILARNING BIR QISMI UCHUN YECHIMNING BARQARORLIGI

*R.V.Mullajonov, ADU f-m.f.n. dotsent
Sh.N.Abdugapparova, ADU katta o'qituvchi
J.V.Mirzaaxmedova, ADU doktranti*

Maqolada klassik mehanika va biofizikadagi nochiziqli differensial tenglamalar bilan ifodalangan dinamik sistemalarning matematik modeli hamda ularning yangi modifikatsiyalari va transformatsiyalari ko'rib chiqiladi. Tenglamalarning xossalari, yechimlarning xususiyatlari, yechimning statsionar muvozanatda bo'lgan va muvozanatda bo'lgan holatlari o'rganiladi.

Kalit so'zlar: *dinamik sistema, yechim barqarorligi*

Обсуждаются системы нелинейных дифференциальных уравнений для математических задач модели классической механики и биофизики. Интеграция и исследованы свойства уравнений. Устойчивость для стационарного равновесия состояния решений и поведение решений в окрестности равновесие достигается.

Ключевые слова: *динамические системы; устойчивость решения*

This article gives information about the nonlinear differential equations systems are investigated for mathematical models in classical mechanics and biodynamics, their new modifications and conversions. The properties of equations are investigated for equilibrium stationary state solutions and the behavior of the solutions in the neighborhood of the equilibrium.

Keywords: *dynamical systems; stability of solution.*



Kirish

Dinamik sistema harakati mobaynida vaqt o'tishi bilan o'zgaruvchan holatni anglatadi va oddiy differensial tenglamalar bilan tasvirlanadi. Parametrlari tajribalar yoki kuzatishlar natijasida yagona aniqlangan dinamik sistemalar deterministik dinamik sistemalar deyiladi. Sistema parametrlari uchun qo'shimcha xarakter tanlash mumkin bo'lsa bu dinamik sistema boshqariladigan dinamik sistema deb ataladi. Nochiziqli dinamik sistemalarni tadqiq qilishda to'g'ri yechimni bilish muhimdir: barqaror muvozanat nuqtalarining mavjudligi, tebranma holatlar shartlari qandayligi [3,9-11]. Yechimlarning baqarorlik xususiyatlari masalani to'g'ri qo'yish, umumlashtirilgan koordinatalarni va jarayonni tavsiflovchi tenglamalarni tanlashga bog'liq. Qo'shimcha o'zgaruvchilarni kiritish uchun bu xususiyatlarni o'zgaruvchilarni yoki kattaliklarni almashtirish orqali o'zgartirish imkoniyati mavjud. Xuddi shu yo'l bilan birinchi integrallar yordamida dastlabki sistemada kanonik o'zgartirishlarni amalga oshirish mumkin.

Ko'p hollarda yechimlarning holati sinflarga ajratilgan yo'lga oid funksiyalar ko'rinishida aniqlanadi. Klassik mehanika muammolarida potensial kuch va potensial energiya funksiyasi bosqichli ko'rinishni hosil qilish uchun qo'llaniladi. Klassik mehanikada asosiy xossalarga ega bo'lish uchun birinchi integrallardan (energiya, maydonlar, siklik) ham foydalaniladi.

Mexanik sistemalar dinamikasidagi klassik tenglamalarning erkinlik darajasi yaxshi o'rganilgan: moddiy nuqtaning elastik kuchi yoki tebranishi ta'sirida harakatga keluvchi garmonik generator qarshilik kuchlarini o'zida saqlaydi, moddiy nuqtaning nochiziqli tebranma tenglamalari ham qarshilik kuchlarini va harakatlantiruvchi kuchni o'z ichiga oladi. Bu holatlarning barchasini quyidagi tenglamalar orqali tavsiflash mumkin:

$$\frac{dx}{dy} = y, \quad \frac{dy}{dt} = -k^2x - 2hy + f(x, y, u, t).$$



Birinchi holda, davriy yechim ya'ni Lyapunov bo'yicha yechimlar barqarorligi va muvozanati holati yopiq trayektoriyalar atrofida aniqlanadi. Ikkinchi holatda muvozanat asimptotik barqaror. Jarayon parametrlari bo'yicha cheklovlarni jumladan chastotalar rezonansi holatini ham olish mumkin. Jarayon bo'yicha boshqaruv yechimlarning xossa va xususiyatlarini o'zgartirish imkonini beradi.

Masalaning qo'yilishi

Agar dastlabki o'zgaruvchilarda kichik og'ishlar kichik qo'zg'alishlarga olib kelsa harakat Lyapunov bo'yicha uzluksiz deb ataladi. Orbital barqarorlik yoki ba'zi koordinatalarga (o'zgaruvchilarga) nisbatan barqarorlik tasvirlovchi nuqtalar vaqt o'tishi bilan bir-biridan uzoqlashishiga qaramay fazaviy trayektoriyasi yoki uning proyeksiyasi mazkur fazo ostida yetarlicha yaqin trayektoriya ekanligini ko'rsatadi.

Misol uchun: moddiy nuqtaning amaldagi kuch mavjud bo'lmagan holatdagi harakati (inersiya nuqtasi harakati). To'g'ri chiziq faza tekisligida quyidagicha doimiy tezlik bilan harakatlanadi:

$$\dot{x}_1 = x_2, \quad \dot{x}_2 = 0, \quad \rightarrow \quad x_2 = x_2^0, \quad x_1 = x_2^0 t + x_1^0.$$

(0,0) va **x_1** o'qining barcha nuqtalari uchun barqarorlik mavjud emas.

Dastlabki kichik og'ishlarda fazaviy trayektoriyasiga yetarlicha yaqin bo'lgan to'g'ri chiziqqa ega bo'lamiz

$$x_2 = x_2^0 + \varepsilon_2, \quad x_1 = (x_2^0 + \varepsilon_2)t + x_1^0 + \varepsilon_1.$$

Bu to'g'ri chiziqdagi tasvirlovchi nuqtalar orasidagi masofa fazaviy o'zgaruvchilardan birida qisman barqarorlik mavjud bo'lsa ham ortadi. Ayni vaqtda **x_2** koordinataga nisbatan barqarorlik saqlanib qoladi. Agar tenglamalarda kichik davriy qo'zg'alishlar mavjud bo'lsa sistema va yechim quyidagicha bo'ladi:

$$\begin{aligned} \dot{x}_1 &= x_2 + \varepsilon_1 \sin t, & \dot{x}_2 &= \varepsilon_2 \cos t, \\ x_2 &= x_2^0 + \varepsilon_2 \sin t, & x_1 &= x_1^0 + x_2^0 t - \varepsilon_2 \cos t - \varepsilon_1 \cos t. \end{aligned}$$



Shunga o'xshash xususiyatlarni markaziy tortishish maydonidagi moddiy nuqta harakati tenglamalarida ko'rishimiz mumkin. Qo'zg'aluvchi trayektoriyalar bir-birlariga yaqin lekin orbital tezliklari turlicha.

Harakat tenglamasi

Umumiy holda dinamik sistemalar normal ko'rinishdagi tenglamalarining o'ng tomoni nolga teng bo'lganda maxsus kritik nuqtalarga ega:

$$\frac{dx}{dy} = f(x), x \in R^n, \quad f(x^*) = 0.$$

Dinamik masalalardagi tenglamalar uchun yechimlarning barqarorligi turli usullar bilan tekshiriladi [5, 11]. Lagranjning ikkinchi tur tenglamalari konservativ mexanik sistemalar uchun $\Pi(x)$ potensial energiya funksiyasining barqarorligini baholash imkonini beradi. Bu funksiya eng kichik fazaviy o'zgaruvchilarga ega bo'lishi kerak. Sistema tenglamalarida siklik integrallar mavjud bo'lganda tartibi pasaytiriladi va qolgan umumlashgan koordinatalar uchun barqarorlik baholanadi.

Gamilton kanonik sistemasidagi boshlang'ich tenglamalar sistemasini qisqartirishda harakat tenglamasining o'ng qismini tekshirish mumkin, bu $H(x)$ Gamilton funksiyasi uchun shartlarni belgilaydi.

Arnold teoremasiga ko'ra [11], agar harakat tenglamalari kanonik shaklda yozilsa va birinchi integralning n tasi mavjud bo'lsa, fazaviy trayektoriyalar n — o'lchovchi sirtida aniqlanadi va harakat chekli davriy bo'ladi. Umumiy holda sistema differensial tenglamasining normal shaklida shu sirtga mos integral o'zgaruvchilarni aniqlovchi birinchi integrallar mavjud bo'lishi mumkin. Bu holat sistema harakatining muvozanatdagi yoki statsionar holati deb ataladi.

Shuni e'tiborga olish kerakki, yangi o'zgaruvchilar kiritilganda yangi tenglamalar yechimlarining barqarorlik shartlari ham o'zgarishi

mumkin. Kanonik tenglamalarni hosil qilishda ularga yangi o'zgaruvchilarni kiritib kerakli funksiyani qurish uchun maxsus funksiyalarni tanlashimiz kerak, qachonki, oldingi va yangi o'zgaruvchili tenglamalarning ham o'ng qismlari nolga teng bo'lsa, so'ng berilgan sistema tenglamalarining yechimlari yangi o'zgaruvchilar orqali aniqlanadi. Shuning uchun dastlabki kichik og'ishlar mobaynida har qanday boshlang'ich shartlar uchun yangi o'zgaruvchilar doimiy qoladi.

Biofizika masalalaridagi dinamikaning matematik modellari Lotka, Volterra, Novoselov tenglamalarini o'z ichiga oladi [1,2,4-8]. Ushbu tenglamalar fizik va kimyoviy jarayonlarning o'zgarishini quyidagi differensial tenglamalar sistemasi tavsiflaydi.

$$\frac{dx}{dt} = Ax + (x^*, Bx),$$

Nochiziqli tenglamalar sistemasining o'ng qismida elementlari chiziqli va kvadratik bog'liq bo'lgan fazaviy o'zgaruvchilardan iborat bo'lgan matritsalar A va B doimiylar orqali qabul qilinadi. Fazaviy o'zgaruvchilarning mumkin bo'lgan qiymatlar maydonida agar o'ng tomon nolga teng bo'lsa, muvozanat nuqtalarini o'rnatishimiz mumkin.

Muvozanat atrofidagi harakat

Muvozanat nuqtalarini va biologik sistemalar hamda atrof-muhit bilan energiya almashinuvida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nomuvozanat holatlarni o'rganish mumkin. Almashinuv jarayoni qo'zg'alish yoki barqarorlashishni boshqarish bilan ifodalanadi. Yechimlar barqarorligini baxolashda o'zgartirishlar yoki qo'shimchalar taklif etiladi.

Volterranning klassik "yirtqich-o'lja" modeli [1,6] quyidagi tenglamalar bilan ifodalanadi

$$\frac{dx}{dt} = a_1x - b_1x^2 - c_1xy, \quad \frac{dy}{dt} = a_2y - b_2y^2 + c_2xy.$$



Sistemada ikkita muvozanat nuqtasi mavjud. Faza tekisligidagi maxsus nuqta boshlang'ich shartlarni qanoatlantiruvchi turlarning davriy tebranishlarining yopiq egri chiziqlari bilan o'ralgan. Sistema yechimining xususiyati qo'zg'alishlar va nazorat funksiyalarini o'zgartirishi mumkin. Koordinatalarning kelib chiqishi «beqaror tugun» ning maxsus yagona nuqtasidir. Bu maxsus nuqtalarning yana uchta turi mavjud. Ulardan ikkitasi o'lja yoki yirtqichlarning mavjudmaslik holatiga to'g'ri keladi. Uchinchi holatda yirtqich-o'lja sistemasidagi davriy tebranishlarni ko'rsatuvchi faza tekisligidagi yopiq egri chiziqlar dastlabki ma'lumotlar bilan aniqlanadi.

$$\frac{dx}{dt} = Ax + (x^*, Bx) + f(x, u, t).$$

Mushaklar faollashuvining statistik modelining differensial tenglamalari Novoselov ishlaridan olingan [4, 5]. Qo'zg'alishlar funksiyasi parametrlar ko'rinishida yoki $u(t)$ boshqaruv funksiyasi shaklida berilishi mumkin.

Biz mushaklarning faollashishini mushak tolasi membranasining yuzasidagi bitta hujayrali turida mushakning kuchlanishi yoki qisqarishi deb tushunamiz. Bunga qalin mushak tolasi kirishi mumkin. Shunday qilib, fermentatsiya reaksiyasining faol markazi hosil bo'ladi. Ushbu reaksiyaning natijasi kuchlanish energiyasining mushak ishiga aylanish jarayonidir. Mushakning barcha tashkil qiluvchi elementlari statistik jihatdan bir hil qabul qilinadi. Mushaklarning qisqarish jarayonini nazorat qilish asab impulsleri, ionlar konsentratsiyasi orqali amalga oshiriladi va organik moddalarning oksidlanishi tufayli ham kislorod molekulalari elektronlar bilan nafas olish fermentlari zanjiri bo'ylab o'tadi. O'pka ish rejimining o'zgarishi markaziy asab sistemasining buyrug'iga ko'ra amalga oshiriladi.

Muhokama

Novoselov sistemasi sakkizta nochiziqli differensial tenglamalardan

iborat. Ushbu sistema yordamida muvozanatsiz barqaror mushak kuchlanishi o'rganiladi. Bundan tashqari, raqamli usullar sistema echimlarining barcha atroflaridagi statsionar muvozanat xususiyatlarini baholashga imkon beradi.

$$\begin{aligned}\frac{dx_1}{dt} &= \alpha x_2 x_4 - \beta x_1 x_7 + Cx_1, & \alpha = const > 0, & \quad \beta = const > 0, \\ \frac{dx_2}{dt} &= \gamma x_3 x_7 - \alpha x_2 x_4 + Cx_2, & \gamma = const > 0, \\ \frac{dx_3}{dt} &= \beta x_1 x_7 - \gamma x_3 x_7 + Cx_3, \\ \frac{dx_4}{dt} &= \delta x_5 x_6 - \alpha x_2 x_4 + Cx_4, & \delta = const > 0, \\ \frac{dx_5}{dt} &= \beta x_1 x_7 - \delta x_5 x_6 + Cx_5, \\ \frac{dx_6}{dt} &= \vartheta U(t) + \mu(x_6^p - x_6), & \vartheta = const > 0, & \quad \mu = const > 0, \\ \frac{dx_7}{dt} &= V(t)x_8 - \beta x_1 x_7 - \gamma x_3 x_7 - C(x_1 + x_2), \\ \frac{dx_8}{dt} &= 2\beta x_1 x_7 - V(t)x_8.\end{aligned}$$

Dastlabki shartlarga va biriktirilgan impuls yoki impulslar ketma-ketligiga mos keluvchi $U(t)$ sistema tenglamasi koeffitsientlarining qiymatlariga qarab o'zgaruvchilarning tegishli guruhining qisqa yoki uzoq davom etuvchi tebranish holatlari bo'lishi mumkin. Differensial tenglamalar quyidagi integrallarga ega:

$$\begin{aligned}x_1(t) + x_2(t) + x_3(t) &= N, & x_1(t) + x_4(t) + x_5(t) &= N, \\ x_1(t) + x_2(t) + x_7(t) + x_8(t) &= S = const.\end{aligned}$$

Bu yerda N parametr L uzunlikning funksiyasi bo'lib, $L = const$ bo'lgan izometrik holatda doimiy bo'lishi mumkin.



Konsentratsiya o'zgarishi fermentatsiya reaksiyasining tezligi orqali aniqlanadi. Yopiq impulsga yoki impulslar ketma-ketligiga tegishli tenglamalar sistemasining koeffitsientlar qiymatlari va boshlang'ich shartlarga ko'ra o'zgaruvchilarning barqaror va barqaror bo'lmagan tebranish holatlarini ko'rsatish mumkin. Mushaklar qisqarishining ikki turi mavjud bo'lib, ular izometrik va izotonikdir. Izometrik bu butun tanani ishlatmasdan faqat bitta mushakni rivojlantirishdir, shuning uchun unda kuchlanish ortadi va energiya sarflanadi. Izotonik bu qisqarish va qalinlashish bo'lib, bunda mushak kuchlanishi amalda o'zgar olmaydi. Masalan, yukni harakatlantirish ishini bajarishda mushak birinchi izometrik keyin izotonik qisqaradi. Yechim holatini aniqlovchi B matritsaning xarakteristik polinomining birinchi taxminiy ko'rinishi quyidagicha:

$$|B - \lambda E| = (-\mu - \lambda)\lambda^3(a_0\lambda^4 + a_1\lambda^3 + a_2\lambda^2 + a_3\lambda + a_4)$$

a_i koeffitsientlar musbat bo'ladi. Polinom ildizlarining manfiy bo'lishi kerakli shartdir. Raus-Gurvits kriteriysi orqali yetarlilik shartini olishimiz mumkin. Agar taxminiy raqamlari mavjud bo'lmasa tenglamalar sistemasi uch o'lchovli fazoni to'ldiruvchi muvozanat shartlarining oilasiga ega bo'ladi. Agar quyidagi shartlar qanoatlantirilsa:

$$a_0 > 0, \quad a_1a_2 - a_0a_3 > 0, \quad a_3(a_1a_2 - a_0a_3) - a_1^2a_4 > 0, \quad a_4 > 0,$$

har bir muvozanat sharti sistemaning asimptotik harakati bilan to'ldirilgan besh o'lchovli fazo ostini aniqlaydi.

Bizda tenglamalar yechimlarining qisman barqarorligi mavjud. Nochiziqli mehanik sistemalarning muvozanat holatidagi o'zgaruvchilarining bir qismi uchun tegishli bo'lgan masalaning baqarorligiga natijani qo'llaymiz.

Adabiyotlar:

1. C.T.H. Baker, Numerical analysis of Volterra functional and integral equations state of the art, MCCM Tech. rep. No. 292, University of Manchester, 1996.
2. K. Gopalsamy, Stability and Oscillations in Delay Differential Equations of Population Dynamics, Kluwer Academic Publishers, Netherlands, 1992.
3. A. M. Lyapunov, General problem of stability of motion Moskva.: Academy of Sciences of the USSR, 1956.
4. V. S. Novoselov, Statistical of the dynamic St.-Petersburg Universiteti, 2009.
5. V. S. Novoselov, V. S. Korolev, Model of excitement of a muscle, Works of the international conference, Identification of Systems and Problem of Control Moskva, IPU RAN, (2005), 367-374.
6. G. Ju. Reznichenko, Mathematical models in biophysics and ecology Moskva. 2003.
7. V. V. Rumyantsev, A. S. Oziraner, Stability and stabilization of motion with respect to a part of the variables Moskva.: Nauka, 1987.
8. A. Shimbell, Contribution to the mathematical biophysics of the central nervous system with the special reference to learning, Bull. Math. Biophysica, No. 12, (1950), 241-275. <http://dx.doi.org/10.1007/bf02478324>
9. V. I. Vorotnikov, On the theory of stability to part of the variables, Applied mathematics and mechanics Vol. 59 (4), (1995), 553-561. [http://dx.doi.org/10.1016/0021-8928\(95\)00061-5](http://dx.doi.org/10.1016/0021-8928(95)00061-5)
10. V. I. Vorotnikov, Partial Stability and Control, Boston: Birkhauser, 1998.
11. I. V. Zubov, Methods of the analysis of dynamics of the operated systems Moskva, Fizmatlit, 2003.

AXBOROT TIZIMLARI ASOSIDA YER OSTI GIDROSFERESINI MONITORINGI JARAYONLARINI MODELLASHTIRISH

*J.X. Djumanov, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent
axborot texnologiyalari universiteti t.f.d Professori.*

*Sh.S. Axralov, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent
axborot texnologiyalari universiteti assistenti.*

Maqolada axborot tizimlari va jarayonlar tahlili asosida yer osti gidrosferesini monitoringi yuritilishini, geofiltratsiya va geomigratsiya jarayonlarini matematik modellashtirish asosida turli xil gidrogeologik jarayonlarini tadqiq qilish va samarali xisoblash algoritmlarini ishlab chiqilgan.

***Kalit soʻzlar.** Yer osti suvi, monitoring yuritish, axborot tizimi, geofiltratsiya jarayoni, matematik model, xisoblash algoritmi, dasturiy taʼminot.*

В статье на основе анализа информационных систем и процессов мониторинга подземной гидросферы, исследования различных гидрогеологических процессов разработаны эффективные алгоритмы расчета на основе математического моделирования процессов геофильтрации и геомиграции.

***Ключевые слова.** Подземные воды, мониторинг, информационная система, процесс геофильтрации, математическая модель, алгоритм расчета, программное обеспечение.*

In the article, based on the analysis of information systems and processes, the monitoring of the underground hydrosphere, the research of various hydrogeological processes and the effective calculation algorithms are developed based on the mathematical modeling of geo-filtration and geo-migration processes.



Key words: *Groundwater, monitoring, information system, geo-filtration process, mathematical model, calculation algorithm, software.*

Jahonda axborot tizimlari va texnologiyalarni tog‘ kon sanoati geologiyasi, gidrogeologik axborot tizimlari faoliyatini takomillashtirishga, yer osti suvlari holati, harorati va sathi o‘zgarishi bilan minerallashuvi darajasiga hamda ichimlik suviga doir tadqiqotlarda qo‘llanilishiga katta e‘tibor berilmokda. Yer osti suvlari monitoringi, axborot tizimlari va matematik modellar asosida turli xil gidrogeologik jarayonlarini tadqiq qilish va samarali xisoblash algoritmlarini ishlab chiqish hamda takomillashtirish eng dolzarb ilmiy masalalardandir. Bu yonalishda rivojlangan xorijiy mamlakatlarda, jumladan, AQSH, Kanada, Yaponiya, Angliya, Daniya, Fransiya, Germaniya, Niderlandiya, Xitoy, Koreya, Rossiya, Xindiston va boshqa mamlakatlarda murakkab gidrodinamik va geomigratsiya jarayonlarini tadqiq qilish uchun axborot tizimlari, matematik modellar va sonli xisoblash algoritmlarini ishlab chiqishga katta e‘tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 4 maydagi PK-2954-son «2017-2021 yillarda yer osti suvlari zaxiralaridan oqilona foydalanishni nazorat qilish va hisobga olishni tartibga solish chora-tadbirlari tug‘risida»gi, 2020 yil 7 maydagi PQ-4708-son «Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari tug‘risida»gi va 2020 yil 6 oktyabrda PQ-4851-son «Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanad takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora- tadbirlari tug‘risida»gi Qarorlari mazkur dissertatsiya ishida ko‘rib chiqaladigan masalalarning dolzarbligini ko‘rsatadi [1].

Yer osti suvlari monitoringi, axborot- tahlil dasturiy ta’minotidan foydalanishning yangi yondashuvlari, axborotlarni boshqarish nazariyasi va amaliyotini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishni,



ayniqsa, qatiymas to'plamlar va graflar nazariyasi asosida qaror qabul qilish siklining vaqtini qisqartirish orqali boshqaruv samaradorligini oshirish yo'llarini tadqiq qilindi. Axborot tahlil tizimlari sohasida L.Zade, T.Saati, M.Kristofer, R.Bellman, V.S.Lukinskiy, A.A.Sorokin, D.Uoters, M.Svami, D.A.Ivanov, I.K.Gavich, F.M.Bochever, va boshqalar, geografik axborot tizimlari va texnologiyalarini ishlab chiqish va qo'llash sohasida V.G.Bondur, A.M.Berlyant, V.S.Tikunov, K.Kahskarev, A.D.Ivannikov, V.Ya.Tsvetkov va boshqalar hamda monitoringda intellektual tizimlar sohasida S.Pospelov, G.S.Osipov, I.S.Dzekser, T.A.Gavrilova shuningdek, boshqa bir qator xorijiy olimlar tadqiqotlarida ko'rib chiqilgan [2, 3].

O'zbekistonda yer osti suvi monitoring axborot tizimlar yani gidrogeologik jarayonlarini modellari, intellektual ko'p bosqichli boshqaruv komplekslari, jumladan, avtomatlashtirilgan monitoring asosida tashkil etilgan bo'lib, ular tezkor axborot almashinuvining uzluksizligini ta'minlash va tunu kun monitoringi masalalarini samarali hal etishni N.N.Xojibaev, U.U.Umarov, I.Habibullaev, R.N.Usmonov, J.Djumanov, V.N.Sokolov, S.X.Xushvaqto'v, O.V.Malenin, V.S.Sheglov, B.Rasulov, E.Devyatkin, S.Saidova va boshqa olimlar tadqiq qilganlar hamda salmoqli ilmiy natijalarga erishgan [3, 4].

Sohaga oid tadqiqotlar taxlili shuni kursatadiki, monitoring tizimini takomillashtirish dasturiy ta'minotni, axborot jarayonlarini tavsiflashning o'ziga xos xususiyatlari, xususan, yagona axborot makonida axborot jarayonlarining tegishli modellarini yaratish hisobga olinmagan. Suv resurslari, jumladan: yer osti va yer usti suvlari hamda minerallashuvi miqdoriining o'zgarishi jarayonlari, ichimlik suvi manbayini, yerning meliorativ xolatini va yer osti suvlari zaxiralari o'zgarishini baxolash bilan bog'liq masalalarni yanada chuqurroq va xar tomonlama tadqiq etish usullarini ishlab chiqishni talab etadi.

Tadqiqoti jarayonida axborot tizimlari va modellari nazariyasi, tashkiliy tizimlarni boshqarish nazariyasi, gidrogeologik rejim



ma'lumotlarini tizimli taxlili, avtomatlashgan monitoring, hisoblash matematikasi, matematik modellashtirish va hisob-eksperiment usullari, shuningdek, dasturiy modullarni loyihalash va axborot tizimiga integratsiya qilish, real axborot massivlari bo'yicha dasturiy vosita yaratishda ob'ektga yunaltirilgan dasturlash texnologiyalaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning maqsadi - yer osti gidrosferesining avtomatlashgan monitoringi jarayonlari asosida takomillashgan axborot-tahlil tizimlarini ishlab chiqishdan iborat bo'lib, mazkur maqsadiga yerishishda quyidagi asosiy vazifalar belgilandi:

gidrogeologik monitoringini yuritishda axborot oqimlari modelini qurish jarayonini tahlil qilish va avtomatlashtirilgan axborot-tahlil tizimlarini loyihalash;

yer osti suvi konlarining shakillanishi va sifat o'zgarishi nazariyasiga asoslangan holda buzilgan tabiiy tizimlar va monitoring jarayonlarining geoaxborot tuzilmasini ishlab chiqish;


gidrogeologiya va muhandislik geologiyasi tizimlarning axborot ta'minoti va axborot boshqaruv jarayonlarini tahlil qilish, shu jumladan axborot resurslarini o'rganish, boshqaruv faoliyatini qo'llab-quvvatlash usullarini ishlab chiqish;

avtomatlashgan axborot tizimlari monitoring faoliyatini o'ziga xosligi, murakkabligi va dinamik tarkibiy qismlarini hisobga olgan holda Ohangaron yer osti suvi koni misolida axborot almashinuvi xususiyatlari va infratuzilishini yaratish;

Yer osti suvlari monitoring jarayonlarining axborot tizimlari, axborot modelini qurish tamoyillari, masalani yechishda matematik modellash usullarini qo'llanishi hamda suvli qatlamlarida ssuv satxini o'zgarishi davomida geomigratsiya jarayonlarini matematik modellashtirish usullari va axborot muhitining tuzilishini o'rganishini aniqlangan. Bunda yer osti suv tutuvchi qatlamli suv muxitlaidar geofiltratsiyasi jarayoni sizilish xususiyatlari xisobga olingan xolda chegaraviy shartlar modellari umumiy takomillashtirildi.



Geoaxborot tizimlarida taqsimlangan ma'lumotlarni tasvirlash jarayonlarida geoma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari – axborotni saqlash va olish uchun (1-rasm)



1-rasm. Gidrogeologik monitoringining axborot oqimlari tizimi

hamda yer osti suvi sathi va minerallashuvi o'zgarishini bashorat qilish masalalarida matematik modellarini chekli ayirmalar, xaydash usullaridan foydalanib taqribiy echish usullari va sonli xisoblash algoritmlari ishlab chiqildi. Axborot tizimlarini yaratishga kompleks yondashuv va geomigratsiyaning o'zgarishi, diffuziya koeffitsienti hamda suv satxiga bog'liq filtratsiya oqimi tezliklarini, gidrogeologik xolatga ta'siri tadqiq qilindi.

Axborotlar relyatsion bog'lanish ma'lumotlar bazasi jadvallarida ham, o'zaro infratuzilmasi bo'yicha tashkil etilgan turli formatdagi fayllar to'plami shaklida saqlanadi. Skvajinalar, quduqlar va buloqlar

kabi boshqa kuzatuv ob'ektlari haqidagi barcha ma'lumotlar (joylashuvi, maqsadi, holati, tuzilishi, litologiyasi) markazlashtirilgan tarzda saqlanadi; birlamchi va qayta ishlangan faktogragik ma'lumotlar (suyuqlikning hosil bo'lishi darajasi, eksperimental filtrlash ishlari va namunalarning kimyoviy tahlillari ma'lumotlari, geofizik tadqiqot ma'lumotlari); ma'lumotnoma va qo'llab-quvvatlovchi ma'lumotlar va hujjatlar sifatida arxiv va findga doir bazalarda saqlanadi. Sanoat standartidagi relyatsion ma'lumotlar bazasidan foydalanish axborot tizimidagi boshqa ilovalari bilan integratsiya qilish imkoniyatini beradi va foydalanuvchilarning ma'lumotlarga kirish huquqlarini farqlash imkonini beradi.

Monitoring jarayonlarini tezkor axborot-tahlili, baholash va ko'rsatkichlarning nazorat hisobi, sifat o'zgarishida geomigratsiya jarayonlarini o'rganish masalalarini takomillashtirilgan matematik modellarini xisoblash algoritmlari va dasturiy vositalaridan foydalanib, eksperiment ma'lumotlariga asoslangan samaradorlikni baholash va tahlil qilish, xisoblash tajribalari o'tkazilgan hamda olingan natijalarning taxlili amalga oshirildi

Monitoring davomida, gidrogeologiya, irrigatsiya-melioratsiya va suv xo'jaligi rivojlanishida yuqoridagi maqsadlarga erishish yolida yangi axborot ehtiyojlari paydo bo'ladi. Axborotga bo'lgan ehtiyojning evolyutsiyasi yondashuvni yangilash uchun tegishli axborot to'plash va monitoring strategiyalarini muntazam qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Ma'lumot to'plashda har qanday kuzatish yer osti suvlarining harakatchanligini va bunda insonlarning haqiqiy faoliyat yuritilishi hamda uning ta'siri o'rtasidagi vaqt oralig'ini hisobga olishi kerak.

Yer osti suvlari geofiltratsiya jarayoni va tuzli konsentratsiyani birgalikdagi oqimi harakati masalalarida yer osti sizot suvlari satxining uzgarishi bilan minerallashuv jarayonlaridagi o'zgarishlar bog'likliklarni yani yer osti suviga turli tomonlardan oqib kiruvchi suvlar tarkibidagi sifat qiymatlarini o'zgarish xususiyatlarini tavsiflaydigan matematik



modeli [2, 3, 4] quyidagicha ifodalanadi:

$$\begin{cases} \mu \frac{\partial H}{\partial t} = \frac{\partial}{\partial x} \left(km \frac{\partial H}{\partial x} \right) + \frac{\partial}{\partial y} \left(km \frac{\partial H}{\partial y} \right) + W_{\Pi} - W_o \\ \mu \frac{\partial (mC)}{\partial t} = \frac{\partial}{\partial x} \left(Dm \frac{\partial C}{\partial x} - mv_x C \right) + \frac{\partial}{\partial y} \left(Dm \frac{\partial C}{\partial y} - mv_y C \right) + W_{\Pi} C_{\Pi} - W_o C_o \end{cases} \quad (1)$$

$$\begin{cases} H(x, y, t_0) = \varphi(x, y); & t \geq t_0 \\ C(x, y, t_0) = \psi(x, y); & t \geq t_0 \end{cases} \quad (2)$$

$$\begin{cases} H(x, y, t) = F_1(x, y, t); & x, y \in \Gamma_1; & t > t_0 \\ C(x, y, t) = F_2(x, y, t); & x, y \in \Gamma_2; & t > t_0 \end{cases} \quad (3)$$

$$\begin{cases} -km \frac{\partial H}{\partial n} = F_3(x, y, t); & x, y \in \Gamma_3; & t > t_0; \\ -D_n m \frac{\partial C}{\partial n} + mv_n C = mv_n C; & x, y \in \Gamma_4; & t > t_0; \end{cases} \quad (4)$$

$$\begin{cases} -km \frac{\partial H}{\partial n} = km \frac{H_B - H}{\phi}; & x, y \in \Gamma_5; & t > t_0; \\ -D_n m \frac{\partial C}{\partial n} + mv_n C = mv_n C; & x, y \in \Gamma_6; & t > t_0; \end{cases} \quad (5)$$

bu yerda μ – tog‘ jinslarining erkin suv berish qobiliyati koeffitsienti, yani yer osti suv yuqotilishi koeffitsienti; $H(x, y, t)$ – yer osti suv satxi; k – yer osti suvning sizilish ko‘rsatgichi -filtratsiya koeffitsienti; $m=H-b(x,y)$ – yer osti suvini tutib turuvchi qatlam qalinligi; $b(x,y)$ – suv o‘tkazmaydigan qatlamni ustki chegarasi; W_{Π} – oqib kiruvchi suv qiymati, y’ani tashki omillar qiymati bo‘lib u $W_n = \sum_{i=1}^n W_i^n(x, y, t)$ -kabi hisoblanadi hamda tarkibida minerallashuvi yoki $C_n(x, y, t)$, m/kecha kunduz tuz konsentratsiyasi bilan birgalikda; shuningdek W_o – chiquvchi yoki suv olinishi, y’ani ichki omillar bo‘lib,

$-W_0 = \sum_{i=1}^n W_i^0(x, y, t)$ - kabi hisoblanadi tarkibida minerallashuvi yoki tuzli $C_0(x, y, t)$, suv qiymati; $\varphi(x, y)$ va $\psi(x, y)$ ma'lum yoki berilgan funktsiyalar, $0(x, y, t)$ - tuz konsentratsiyasi; v_x, v - filtratsiya tezliklari; D - diffuziya koeffitsienti; 0_f - tuz konsentratsiyasi

Ushbu (1)-(5) modeldan foydalanib, yer osti suvi gefiltratsiyasi jarayonlarini va minerallashuvining vaqt ichida o'zgarishini o'rganish amalga oshirilgan [3]. Olingan natijalar tahlili monitoring tsiklining birinchi qismiga - yer osti suvlari resurslarini to'yinishi (sathning ko'tarilish vaqti) va ularning iste'moli davrida (sathning pasayishi) Ohangaron yer osti suvi koni misolida o'rganildi, matematik model natijasida yer osti suvi koni resurslarining qiymati, ularning amplitudasi bilan, vaqt o'zgarishida esa to'yinishi va iste'mol amplitudalari farqi aniqlangan (6), har bir rejim siklidagi amplitudalarni aniqlash bog'liqliklari (7) bo'yicha amalga oshirildi [5, 6].

$$\Delta h_i^t = h_i^{\min} - h_i^{\max} \quad (6)$$

$$\Delta h_i^s = h_i^{\max} - h_i^{\min} \quad (7)$$

bu yerda, $\Delta h_i^t, \Delta h_i^s$ - rejim siklidagi "i" yer osti suv resurslarini to'yinishi va sarflanishdagi amplitudasi, m; $h_i^{\min}$ - "i" rejim siklidagi maksimaldan oldingi yer osti suvlari sathining minimal holati, m; $h_i^{\max}$ - "i" rejim siklidagi maksimal yer osti suvlari sathining holati, m; Eksploatatsiya davrlarda yer osti suvlari sathining maksimaldan oldingi va undan keyingi minimal holatlari orasidagi farq (Δ) tabiiy yer osti suv resurslarining to'planishi yoki sarflanishini tavsiflaydi, ularning qiymati (8) formula bilan aniqlanadi.

$$\pm \Delta = h_{i-1}^{\min} - h_i^{\min} \quad (8)$$

Yer osti suvi koni bo'yicha tabiiy suv resurslari qiymatini hisoblash quyidagi ifoda asosida amalga oshirildi



$$V_r^{t,s}=0,0317 \mu \Delta h^{s,t} F \quad (9)$$

bu yerda $V_r^{t,s}$ – suv to‘yinish va sarflanish davridagi qiymati, m^3/s -hisoblangan tabiiy yer osti suv resurslarining qiymatidir; $\Delta h^{t,s}$ - mos ravishda suv to‘yinishi va sarflanishi davridagi hisoblangan yer osti suvlarining tebranishlari amplitudasining o‘rtacha arifmetik qiymati; F - yer osti suvlari konining maydoni, $kv.km$; μ - suvli qatlam (kompleks) jinslarining suv berishi koefitsientining qiymati, birlik ulushi.

Suvli qatlamda tog’ jinslarining suv yo‘qotish koefitsienti qiymati qidiruv va qidiruv ishlarining ilgari o‘tkazilgan suv balansi eksperimental filtrlash tadqiqotlari bo‘yicha olingan, ayrim xollarda tog’ jinslarining suyuqlik yo‘qotish koefitsienti qiymati adabiyot ma’lumotlariga ko‘ra olinadi. Qumli jinslar (qumtosh va o‘rta zichlikdagi tuproqli qumlar) uchun u 0,1 dan 0,2 gacha o‘zgarib turadi. Aniq qiymatlarini hududning matematik modelida teskari masalani echish asosida topiladi. Hududning turli qismlarida shag‘alli qumlarning yer osti suvlari suyuqlik yo‘qotish koefitsienti qiymatlari 0,25-0,30 ga tengligi; tosh tuproq va tuproqli qumlar, shuningdek, qumloqlar hududlarida - 0,05-0,10; sof tuproq 0,01-0,05 gacha bo‘lishi aniqlandi.

Umuman olganda, axborot tizimi va monitoring tarmoqlarini ikkita juda keng guruhga bo‘lish mumkin. Bular asosiy yoki moslik monitoring tarmoqlari va maxsus monitoring tarmoqlari bo‘lib, ularning maqsadlari 1-jadvalda uch xil: 1) yer osti suvlari rejimini tavsiflovchi ma’lumotlarni taqdim etish; 2) yer osti suvlari sath darajasi (qiymati) yoki sifatining (miqdori) uzoq muddatli tendentsiyalarini aniqlash uchun ma’lumotlarni taqdim etish hamda 3) maxsus tarmoqlarga xizmat ko‘rsatish masalalari taklif etilgan.

Yer osti suvlari sathi va sifati monitoringi dasturlari va baholash maqsadlari

1-jadval

Maqsadlar	Axborot/natijalar
Teddensiyalar	Tabiiy majburlash, tarqalgan ifloslanish manbalarining ta'siri va gidravlik rejimning o'zgarishi natijasida yer osti suvlari sifati tendentsiyalari va sifat o'zgarishlarini ko'rsating.
Keyingi savollar uchun asos	Yer osti suvlarining sifati to'g'risida ma'lumotni kelajakdagi, hali aniqlanmagan, inson faoliyatining ta'sirini tan oladigan tarzda taqdim etish.
Fazoviy taqsimot	Suv havzasi ichida yer osti suvlari sifatining uch o'lchovli taqsimotining rasmini taqdim etish.

Xulosa qilib, yer osti suvlari sathi va minerallashuvi o'zgarishini ifodalovchi matematik modellarni analitik xamda uning taqribiy echimi tahlil qilingan, ushbu ilmiy manbalar va xisoblash usullari taxlili tadqiqot ishining maqsadi va vazifalarini shakllantirish imkonini berdi.

Yer osti suvlari satxining o'zgarishini bashorat qilish xamda sizot va bosimli suvli qatlamlardagi tuz konsentratsiyasining o'garish jarayonini tadqiqi yer osti suvlari xarakati jarayonlarini ifodalovchi matematik modellarni echish asosida hisoblash tajriba eksperimentlari o'tkazish, natijalar olish va taxlil qilish amalga oshirildi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar "2022 –2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni
2. Абуталиев Ф.Б. Решение задач неустановившейся фильтрации. - Ташкент: Фан, 1972. - 208 с.
3. Akhralov Sh.S., Yusupov R.A., Kh.Egamberdiev, J.J. Jumanov. Geoinformation technologies and methods of mathematical modeling in hydrogeological research. InterCarto, InterGIS Volume 26, 2020, Pages 240-252 2020 International Conference on GI Support of Sustainable Development of Territories; Moscow; Russian Federation; 2020;



MUNDARIJA

ILMIY-OMMABOP BO‘LIM

S.B. Orifjonov. Kreativ fikrlash	3
A.A. Axmedov, B.F. Izbasarov, Artykov X.K. Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida laboratoriya tizimini uzgartirish orqali ta'lim sifatini oshirish	8
A.K. Qutbeddinov. Uzun sanoati ta'siri hududlarida tabiiy suvlar radiatsion kursatkiqlarining yadro-fizik tadqiq usullari	16
G.T. Yuldasheva. Ummiy urta ta'lim maktablarida o'quvchilarning geometrik kompetensiyalarini rivojlantirishning innovatsion texnologiyalari	22

MATEMATIKA JOZIBASI

R.M. Turgunbayev, D.U. Umaraliyeva. Talabalarga matematik matn bilan ishlashni o'rgatishda savollar metodi	30
---	----

ILG'OR TAJRIBA VA O'QITISH METODIKASI

M. A. Butayev. Eksperimental masalalar yechishda o'quvchi kreativ faoliyatini shakllantirish	38
G.T. Xaliqova. Informatika va axborot texnologiyalari o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda pedagogik dasturiy vositadan foydalanish metodikasi pedagogik muammo sifatida	46
I. G. Tursunov, Z.A. Narimbetova. Umumta'lim maktablarida geometriyani o'qitishning me'yoriy omillari	54
F.I. Ochilov. O'quvchilar tabiiy-ilmiy tafakkurini rivojlantirishning masofaviy ta'lim amaliyoti	59
C.C. Jumanazarov. Tuglovchilarning raqamli kompetentligini shakllantirish masalalari	69
E.O. Sharipov. Ananaviy ta'lim tizimi bilan kredit – modul tizimi xususiyatlari	76

OLIMPIADA VA MASALALAR YECHISH BO‘LIMI

Masalalar va yechimlar	84
OLIMPIADA – 2023	95

TALAB, TAKLIF VA TAHLIL

S.N. Hamroyeva. Bo'lajak fizika o'qituvchilarini STEM ta'limi dasturi orqali o'qitishda virtual laboratoriyaning o'rni	104
M. Sh. Qurbanboyeva. Talabalarning axborotlar bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish	110



S. Xakimova. Universitetlarda dasturlash paradigmalari fani amaliy mashg'ulotlarini semiotic yondashuvni qo'llash asosida o'qitishl	117
D.K.Nasriddinov. Oliy xarbiy ta'lim jarayonida mobil ilovalar hamda robototexnika elementlaridan keng foydalanish orqali fizika fanidan ilmiy-texnik tadqiqotlarni tashkil etish	127
B.R. Xanimqulov. Umumta'lim maktablarida "informatika va axborot texnologiyalari" fanini o'qitishning ilmiy-metodik jihatlari	135
Sh. T. Ermatov. Raqamli iqtisodiyot sharoitida smart-kontraktlarning mazmuni, roli va ahamiyati	141
Г.Р.Мухамедова, Ф. Х.Сайдалиева. Методика решения некоторых практических задач путем использования свойств булевой алгебры	148
F.S.Aktamov, G.B.Quzmanova. Raqamli texnologiyalar yordamida matematika darslarini to'g'ri tashkil qilishning innovatsion usullari maple matematik paketimisolida	154
R.V.Mullajonov, Sh.N.Abdugapparova, J.V. Mirzaaxmedova. Dinamik sistemalarning integratsiyasi va o'zgaruvchilarning bir qismi uchun yechimning barqarorlig	163
J.X. Djumanov, Sh.S. Axralov. Axborot tizimlari asosida yer osti gidrosferesini monitoringi jarayonlarini modellashtirish	172



Jurnalning ushbu sonini
tayyorlashda qatnashganlar:

*B. Olimov, F. Saidova, K. Mamatkarimov, R. Turgunboyev, F. Ochilov
Kompyuterda sahifalovchi: M. Dadajanova.*

*O‘zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligida
№ 0103 tartib raqami bilan ro‘yxatdan o‘tgan.*

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi Filologiya,
Pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha ekspert kengashi tavsiyasi
(21.04.2014. №4) va Rayosat qarori (30.04.2014. №205/3) ga asosan
fan doktori ilmiy darajasiga talabgorlar jurnallari ro‘yxatiga «Fizika,
matematika va informatika» jurnali kiritilgan.*

Tahririyat manzili:
Toshkent shahri, Bratislava ko‘chasi, 2-uy.
T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston Pedagogika fanlari
ilmiy tadqiqot instituti

FIZIKA, MATEMATIKA va INFORMATIKA jurnali

Web-site: <http://uzpfiti.uz/uz2/fizika,matematika,informatika.htm>

E-mail: fizmat_jurnali@inbox.uz

Bosishga ruxsat etildi. 28.11.2023 y. Qog‘oz bichimi 60x84 ¹/₁₆.

Ofset bosma usulida bosildi. 7 bosma taboq.

Adadi nusxa 150. Buyurtma № 4

“BIZNES POLIGRAF” MCHJ bosmaxonasi,
Toshkent shahar, Chilonzor katta Qozirobod 65 uy.

